

**AKTYORLIK MAHORATI FANINI  
O‘QITISHDA ILG‘OR XORIJIY  
TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**



- ❖ O‘zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Aktyorlik san’ati” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ Katta o‘qituvchi Rashid Usnatov

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasida katta o‘qituvchisi R.J.Usnatov.

**Taqrizchilar:** *Xorijiy ekspert:* Borzu Abdurazakov – Tojikiston davlat akademik drama teatri rejissyori.

J.Mahmudov – O‘zDSMI “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasida professori.

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>21</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>46</b>
<b>V.</b>	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>53</b>
<b>VI.</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>59</b>
<b>VII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>62</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

#### **“Aktyorlik mahorati fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining maqsadi:**

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

#### **“Aktyorlik mahorati fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining vazifalari:**

- “Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

-mutaxassislik fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

-“Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**“Aktyorlik mahorati fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish”** modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- zamonaviy aktyorlik san’atiga– fan, texnika hamda badiiy rivojlanishning ta’sirini;

- zamonaviy drammaturgiyadagi yangi tendensiyalarning tahlilini;
- teatr va kino san’atida – “Badiiy yaxlitlik”ning nazariy asoslarini;
- G‘arb va Sharq teatrlaridagi zamonaviy tendensiyalarini;
- aktyorlikni o‘qitishdagi ilg‘or uslublardan sahnaviy atmosfera yaratishni;
- aktyorlikdagi to‘g‘ri tahlilning – sahnaviy talqindagi badiiy ahamiyatini

**bilishi** lozim.

#### **Tinglovchi:**

- xorijiy adabiyotlar tahlilini ta’lim jarayoniga tadbiiq etish;
- progonlar tahlili orqali ijodiy jamoaning badiiy qudratini oshirish usullarini o‘rganish;

- aktyorlik san’ati ta’limida ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalanish;

- sintezlashish jarayonida aktyorni rejissyor, rassom, kompozitor, baletmeystr hamda texnik xodimlar bilan ijodiy hamkorlikda ishlashi;

- Shekspirning aktyorlik san’ati uchun belgilab bergan tizimni amaliyotga tadbiiq etish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- aktyorlik mahorati fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;

- aktyorlik san’atining turli janrlarida yetuk sahna asarlari yaratish tendensiyalarini amalda qo‘llash;

- aktyorlik san’atida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash;
- Janubiy Koreya san’at maktabi aktyorlik mahorati fanlarini o‘qitish metodikasi usullaridan foydalanish;

- zamonaviy teatr talablari asosida ish yuritish bo'yicha *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- aktyorlik mahorati asosiy prinsiplarini amaliyotga qo'llash;
- mashhur aktyorlar ijro uslublarini o'rganish;
- aktyorlik san'atiga zamonaviy texnik vositalarni qo'llash uslublarini tadbqiq etish;
- aktyorlik (teatr, kino va televideniye, estrada va ommaviy tamoshalar) san'atida zamonaviy innovatsion g'oyalarni qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar**

**“Aktyorlik mahorati fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish”** fanini ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish mo'ljallangan.

O'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

**“Aktyorlik mahorati fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish”** moduli mazmuni o'quv rejadagi boshqa o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari pedagoglarining kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

**“Aktyorlik mahorati fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish”** moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, audio-video yozuvlaridan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

## Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Mazkur modulning mazmuni o‘quv rejadagi “Aktyorlik mahorati fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “Aktyorlik san’ati” (turlari bo‘yicha) va uzviy o‘zaro bog‘liq boshqa fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Teatr va kino san’atida – “Badiiy yaxlitlik”ning nazariy va amaliy asoslari. Teatr san’atida barcha tomosha turlari talablarining sintezlashishi.	2	2		
2.	Aktyorning rejissyor, dramaturg, kompozitor va rassom bilan ijodiy hamkorligi. Progon – badiiy yaxlitlik darajasini aniqlovchi jarayonda aktyorning ahamiyati.	2	2		
3.	Namoyish etish san’ati maktabining talablari. “Biomexanika” – serqirra ijrochilik talablarining yutuq va kamchiliklari.	2	2		
4.	Braxt teatri talqinini aqliy idrok etish masalasi. Kechinma san’ati maktabi talablari. Stanislovski sistemasi – aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi.	2	2	4	
5.	Aktyorlik mahoratining asosiy unsurlari. Aktyor ijrosida – nutq, vokal, plastika va xarakter yaratish talablarining uyg‘unlashuvi.	2		4	
6.	Aktyorning rol ustida ishlash jarayonida – aktyorning o‘z ustida ishlashi. Oliy maqsad hamda	2		2	



	yetakchi hatti-harakatini to'g'ri aniqlash orqali rolning badiiy yaxlitligiga erishish.				
7.	Zamonaviy teatrlarning serqirra ijodkor aktyor tanlash tendensiyalari.	2		2	
<b>Jami: 20</b>		<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>	

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Teatr va kino san'atida – “Badiiy yaxlitlik”ning nazariy va amaliy asoslari. Teatr san'atida barcha tomosha turlari talablarining sintezlashishi. (2 soat)**

Aktyorlik san'ati teatrlarni ijodiy lakomotividir. Tomoshabinga teatr jamoasining ijodiy mahsulini badiiy obrazlar orqali namoyish etuvchi shaxs. Aktyorlik san'atining vazifalari badiiy yaxlit spektakl ko'rsatish va tomoshabinlarni ma'nan va ruhan poklashdir.

**2-mavzu: Aktyorning rejissyor, dramaturg, kompozitor va rassom bilan ijodiy hamkorligi. Progon – badiiy yaxlitlik darajasini aniqlovchi jarayonda aktyorning ahamiyati. (2 soat)**

Torsovning so'ziga ko'ra, ikkala birinchi holatda - o'z mizanssenamizni yaratish va shuningdek, uchinchi xolatda - bironing mizanssenasini asoslash - aktyorning tajribasida doimiy uchrab turadi. Shuning uchun ulardan yaxshi foydalana bilish kerak ekan.

**3-mavzu: Namoyish etish san'ati maktabining talablari. “Biomexanika” – serqirra ijrochilik talablarining yutuq va kamchiliklari.**

Insonning ovozi xilma-xil psixologik ranglar bilan boy, shuning uchun ham har bir kuylovchi aktyorning asosiy vazifasi o'z tovushining ranglarini rivojlantirish, murakkab ijrochilik san'atini egallashdir, bu uning ijodiy negizi va shu bilan birga aktyorning individual ijodining belgilovchisi bo'lib, uning eng yuqoridagi ijrochilik mahoratining kategoriyasidir. Qanday qilib ovoz tovushi bilan u yoki bu musiqali ahvolni, ishtirok etuvchining kayfiyatini tasvirlashi mumkin va tuyg'ularni ifodalash uchun qanday ohangni ishlatish kerak?

**4-mavzu: Braxt teatri talqinini aqliy idrok etish masalasi. Kechinma san'ati maktabi talablari. Stanislovski sistemasi – aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi.**

Sahnalashtirish uchun rejalashtirilgan asarning mavzusi dolzarb, g'oyasi milliy yoki umuminsoniy bo'lishi zarur. Undagi muammoning sahnaviy yechimtomoshabinga ta'sir etib, uni ijobiy xarakterlarga da'vat etishi zarur. Badiiy asardagi muammoni sahnaviy yechimi teatr jamoasining badiiy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Teatrlar repertuariga qarab ijodiy jamoaning badiiy saviyasini hamda mahorat bobidagi qudratini aniqlash mumkin.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

Ma'ruzadan so'ng rejalashtirilgan ikki mavzu asosida amaliy mashg'ulot tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan baxshichilik san'at yo'nalishi bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo'lgan munosabatini yozma, og'zaki javob yoki amaliy ijro ko'rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko'zda tutilgan. Amaliy mashg'ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo'shimcha vositalar, shuningdek baxshilar bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **1-amaliy mashg'ulot: Braxt teatri talqinini aqliy idrok etish masalasi. Kechinma san'ati maktabi talablari. Stanislovski sistemasi – aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi.**

Sahnalashtirish uchun maxsus yozilgan asarda asosan nutqlari orqali muloqotga kirishadiaktyor o'ziga berilgan personajning dunyoqarashini ziyolilik, soddalik, samimiylik, to'porilik yoki kasbiy ko'nikmalari orqali shakllangan so'zlar ohangi va temporitmi orqali ifodalaydi. Shuningdek gavdaning plastikasi, qadam tashlashning o'ziga xosligi, so'zlash ohangi bilan uyg'unligi faqat amaliy mashqlar orqali o'zlashtiriladi.

### **2-amaliy mashg'ulot: Aktyorlik mahoratining asosiy unsurlari. Aktyor ijrosida – nutq, vokal, plastika va xarakter yaratish talablarining uyg'unlashuvi.**

Asarning kompozitsion qurilishi – Kirish, tugun, rivoj, avj(perepetiya), pafos (ehtiroslarning ochilib ketishi), yechim va finaldan iborat. Shu asonoda aktyor o'z rolining kompozitsion qurilishini aniqlaydi. Bu jarayon Arastuning – “baxtdan – baxtsizlakka yoki aksincha” degan talabi asosida amalga oshiriladi. Aktyorning tahlili – guruh a'zolari orasida tahlil qilinadi. Bu jarayon har bir aktyorning tasavvurini boyitadi va talqiniga aniqlik kiritadi.

**3-amaliy mashg'ulot: Aktyorning rol ustida ishlash jarayonida – aktyorning o'z ustida ishlashi. Oliy maqsad hamda yetakchi hatti-harakatini to'g'ri aniqlash orqali rolning badiiy yaxlitligiga erishish.**

Spektakl jamoat ko'rigidan o'tib, teatr repertuariga kiritiladi. Teatrda kelgan tomoshabin spektakldan qanday ta'surot bilan chiqishi – teatr jamoasining badiiy qudratini, mantiqiy talqin esa rejissyor va aktyorlar mahoartini namoyon qiladi. To'g'ri talqingina teatr muxlislari ortishiga asos bo'ladi. Namuna darajasidagi spektakllar tahlili tinglovchilarning to'g'ri tahlilga e'tiborini orttiradi.

**4-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy teatrlarning serqirra ijodkor aktyor tanlash tendensiyalari.**

Aktyorlik san'atining yetakchi masalasi pishiq dramaturgiya, rejissyorning o'ziga xos talqini aktyorlarni o'z rolini to'g'ri tahlil qilishga va talqinda asar g'oyasini ochishga intilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuning uchun bu masala aktyorlik san'atining yetakchi talabi hisoblanadi.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko'chma mashg'ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar, amaliy mashg'ulotlar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

SWOT tahlil:

S – strength (kuchli)

W – weakness (zaif)

O – opportunities (imkoniyatlar)

T – threatens (xatarlar)

Tahlil qilish uchun 2x2 o‘lchamdagi matritsa tuziladi:

S	W
O	T

#### *Namuna Muzeyning raqobatli SWOT tahlili*

	<b>Manfaatli omillar</b>	<b>Manfaatsiz omillar</b>
<b>Ichki muhit omillari</b>	<p><b>S – kuchli tomoni.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqori malakali xodimlardan iborat jamoa.</li> <li>2. Boshqa san’at muassasalari bilan o‘rnatilgan manfaatli aloqalar.</li> <li>3. Ko‘rgazmalar tashkil etishda innovatsion shakllarni qo‘llash.</li> </ol>	<p><b>W – zaif tomonlari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshqaruv jarayonining salbiy tomonlari (sustkashlik).</li> <li>2. Ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi (m-n: marketolog)</li> </ol>
<b>Tashqi muhit omillari</b>	<p><b>O – imkoniyatlar.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘z eksponatining noyoblighi bo‘yicha muzeyning taniqlilik darajasi.</li> <li>2. Deyarli kuchli raqobatning mavjud emasligi.</li> <li>3. Xalqaro madaniy aloqalarda qatnashish imkoniyatlari.</li> </ol>	<p><b>T – xatarlar.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Obyektiv san’at talabining pasayib ketishi.</li> <li>2. Ichki raqobat: mutaxassis kadrlarning boshqa ish joyiga o‘tib ketishi.</li> <li>3. Tashqi raqobat: Ko‘plab muzey va galereyalarning mavjudligi.</li> </ol>

### Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi.

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### **Metodni amalga oshirish tartibi**

- trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu.

*Namuna:*

<b>Galereya auditoriyasini segmentlash</b>					
<b>Daromadlari bo'yicha</b>		<b>Yoshi bo'yicha</b>		<b>Jinsi bo'yicha</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### **"Keys-stadi" metodi**

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When),

Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining yechimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so’rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo’lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi: F –fikringizni bayon eting, S – unga sabab ko’rsating, M – misol keltiring, U- umumlashtiring.

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 ballgacha baholanishi mumkin.

### “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

➤ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➤ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			



“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilarning mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo’llaniladi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg’ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo’lgan so’zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o’quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o’qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va to’liq izohini o’qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to’g’ri javoblar bilan o’zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o’z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

*Namuna:* “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Aktyorlik	Tomashabinlarga asarda berilgan voqeani to’laqonli yetkazishdagi ma’sul shaxs ijrosi	
Rejissyora	Jamiyatning keng auditoriyasi to’g’ridan aloqa o’rnatib, ularning madaniy hordiq chiqarishlariga ko’maklashish, ommani jalb qilish	

Film va spektakl	Ma'lum bir voqeaga asoslangan dramatik va hajviy sahna ko'rinishlarga ega bo'lgan tomoshabinga ma'naviy ozuqa beradigan sahna ko'rinishi va teleekran namoyishi	
------------------	---	--

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

#### Venn diagrammasida ishlash qoidalari:



### **“Blits-o‘yin” metodi.**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4.«To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu: Teatr va kino san'atida – “Badiiy yaxlitlik”ning nazariy va amaliy asoslari. Teatr san'atida barcha tomosha turlari talablarining sintezlashishi. (2 soat)**

**Reja:**

1. Aktyorlik san'ati teatrlarni ijodiy lakomotivi, tomoshabinga teatr jamoasining ijodiy mahsulini badiiy obrazlar orqali namoyish etuvchi shaxsdir.

2. Aktyorlik san'atining vazifalari badiiy yaxlit spektakl ko'rsatish va tomoshabinlarni ma'nan va ruhan poklashdir.

**Tayanch iboralar:** aktyorda badiiy did va etik madaniyat, insonning emotsional xotirasi, aktyor xis-tuyg'usi, mantiqiy – izchillik, improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat, mushaklar erkinligiga erishish.

**1. Aktyorlik san'ati teatrlarni ijodiy lakomotivi, tomoshabinga teatr jamoasining ijodiy mahsulini badiiy obrazlar orqali namoyish etuvchi shaxsdir.**

Teatr san'ati maktabini o'rganuvchi talabalar eng avvalo sahnada ijro etishni o'rgatib bo'lmazligi, o'rganish esa mumkinligini, teatr san'ati dargoxi aniq qoliplarga ega bo'lgan g'isht tayyorlovchi zavod emas ekanligini aniq bilishi kerak. Rollarni ijro etish uchun tavsiyalar yo'q. Talabalar yaxshi aktyor bo'lib yetishadimi, yo'qmi biz buni bilmaymiz. Agar yurakdan o'rganish uchun xoxishi zo'r bo'lsa, maqsadga erishadi albatta. San'atda barcha sharoitga xos yurish–turish qoidalari yo'q, va shaxzoda Gamlet rolini qanday ijro etishning majburiy ko'nikmalari bo'lishi ham mumkin emas. Albatta bugun, bundan 50 yil avvalgidek emas, yana 50 yildan so'ng xam hamma narsa o'zgaradi, bugungiday bo'lmaydi. Chunki, bundan yarim asr ilgari, hamda bugun va yana yarim asrdan keyin, aktyor asosiy savolni, ya'ni – NIMA UCHUN MEN BUGUN GAMLETni

O'YNAYAPMAN?, degan savolni hal etadi. Nima uchunligini hal qilgach, kimni va nimani o'ynaydi, qandayligini izlaydi, o'ylaydi va topadi.

Aktyor etikasi nafaqat kasb sirlarini egallashda, balki, butun san'at tarixining g'oyaviy tarkibiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham teatr san'atida aktyor etikasi ma'lum chegara va qoidalardan tashkil topgan. Har bir aktyor teatrda faoliyat yuritir ekan teatr jamoasi, tomoshabin, pyesa muallifi, partnyori va nihoyat o'zi oldidagi ma'suliyatni unutmasligi, xis etishi lozim. Teatr san'atining o'ziga xos tabiati, jamoa san'at ekanligi aktyor oldiga nafaqat o'zi va jamoasi, balki umumbashariyat bilan bog'liq yuksak burchni yuklaydi. Bunda aktyor jamoa, jamoa esa aktyor uchun javobgar xisoblanadi. Shu jihatdan ham teatr san'ati tarixida uning buyuk darg'alari yosh aktyorni tarbiyalashda etik, estetik madaniyat tarbiyasini muhim deya xisoblaganlar. Zero, bir teatr asari – spektakl yaralishida ko'plab insonlar ishtirok etadi. Ular orasida ijodiy badiiy birdamlik paydo bo'lgandagina spektakl yaralishidek murakkab jarayon samarali yakun topadi. Aksincha, jamoa ichida faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan shaxslar ham uchrab turadi. Bunday insonlar Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda san'atni emas san'atda o'zini sevgan "ijodkor"lardir. Ular nafaqat spektakl, balki, san'at rivoji, sifatiga salbiy ta'sir etadilar. Xudbinlik, xasad, ko'rolmaslik, mayda-chuyda gap-so'zlar va sahna orti g'iybatlariga yukak g'oya, buyuk maqsadga intilish orqaligina chek qo'yish mumkin. Aktyorlik va san'at etikasining eng muhim birlamchi talabi shudir. Har qanday eng iste'dodli, mahoratli aktyor ham o'zi xis etmagan, o'zida mavjud bo'lmagan guman xislat-fazilatlarni, qalb beg'uborligi, yurak pokligini sahnada ishonarli tasvir etolmaydi. Uning xatti-xarakatlariga tomoshabin ishonmaydi. Aktyor sahnada "xissiyot xotirasisiz" ijod qila olmasligi ko'pchilik san'at ahllariga albatta kundek ravshan. Qahramonning ichki dunyosini yaratish uchun aktyorga o'z intellektual va emotsional xotirasigina ko'mak berishi mumkin. Shuning uchun ham o'z hayotiy tajribasi davomida turli xissiyotlarni boshdan kechirmagan aktyor sahnada aynan shu xissiyotlarni tasvirlay olmaydi. Bunga erishgan taqdirda ham haqiqiy san'at xisoblanmaydi. Turli ichki xissiyot, xislat-fazilatlarni quruq tashqi tasvir texnikasi orqali ifodalab bo'lmaydi. Buning aksi,

ya'ni salbiy obraz yaratishda ham ayni yuqoridagi fikrimiz o'z isbotini topadi. Yuksak fazilatli ideal, barkamol inson bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan aktyor sahnada uning aksi – antitezasini san'at asari darajasida tasvir eta olmaydi. (Bundan kelib chiqadiki, aktyor eng avvalo o'zida guman fazilatlarini shakllantira olishi darkor). Qalbiga yuksak g'oyalarni eka olgan, yuksak madaniyatga ega bo'lgan aktyor biror bir salbiy obrazni tushunib tasvirlar ekan zaldagi tomoshabinlar tasavvurida bu obrazga nisbatan ishonch va istexzo, nafrat uyg'onadi. Boisi, aktyor sahnada salbiy obraz qiyofasidagi xatti-harakatlari zaminida o'z obraziga nisbatan nafrat yotadi. Bu nafrat bevosita tomoshabin qalbiga ham o'tadi. Teatr san'ati tarixida yuksak satirik obrazlarning faqat yuqori madaniyat, bilm va keng dunyoqarashga ega bo'lgan san'atkorlarga mahorat bilan ijro eta olganligi bejiz emas. Albatta, mazkur fikrlardan ulug' aktyorlarning barchasi salbiy xislatlardan xoli degan xulosa yasamoqchi emasmiz. Biz yashab turgan hayotimizda ideal, barkamol insonning yo'qligi aniq fakt. Faqat barkamollikka intiluvchi insonlarga mavjud.

Salbiy obraz qiyofasini ifoda etarkan aktyorning o'z emotsional xotirasiga murojaat etib salbiy xislatlar xissiyotidan foydalanishi sir emas. Ammo, aktyor ayni damda o'z salbiy xislatining aynan salbiy ekanligini tushunib yetgan bo'lishi kerak. Ko'plab ulug' san'atkorlar tajribalaridan ma'lumki, salbiy, shuningdek ijobiy obraz ijrochisi ham o'z qahramonini yaratar ekan qalbidagi yashirin xotiralar, o'z boshidan kechgan voqelar haqidagi xissiyotlardan ish quroli sifatida foydalanadi. Biz eng yaxshi deya xisoblaydigan, tasvir etadigan insonda ham oz bo'lsada xasad, xudbinlik, beshavqatlik, qo'rzoqlik, yovuzlik kabi xislatlarni n i m a va q a n d a y? ekanligini oz bo'lsada biladi, xis qiladi. Insonning emotsional xotirasida salbiy xislatlar ko'plab topiladi. Ularning salbiy ekanligini ta'kidlovchi vosita esa ong xisoblanadi. O'z emotsional xotirasidan to'g'ri foydalana olgan aktyorgina sahnada yuksak obrazlar, san'at asarlari yarata oladi. Bu muvaffaqiyat asosida esa yuksak ezgu maqsad yotadi. Teatr ijodkorlari orasida shunday aqida mavjud: Aktyor teatr binosiga qadam qo'yar ekan, o'zi bilan faqat yuragidagi yaxshi xislat-xayollarni olib kirishi, aksincha, haqiqiy ijod jarayoni, ilhomiga

halaqit beruvchi, putur yetkazuvchi, kishining yuksak, toza tabiatiga qarshi yomonliklar, mayda gap-so‘z, g‘iybat, arzimas orzu-tashvishlarni esa teatr tashqarisida qoldirishi lozim. Tinimsiz qaytariluvchi mashqlar natijasida aktyor qalbidagi barcha ijobiy fazilatlarining mustahkamlanishi, salbiy xayollarning esa sekin-astalik bilan yo‘qolib borishiga erishishi mumkin.

Etik madaniyat talablari har bir davr, zamon, muhit ta‘sirida o‘zgarib boradi. Ammo, uning zaminida yotgan asosiy g‘oya, oliy, ezgu maqsad – guman xislat, badiiy did, etik madaniyat o‘zgarmaydi. Balki, yanada sayqallanib, rivojlanib boraveradi.

Teatr shunday murakkab zaminki, unda bir vaqtning o‘zida ham chiroyli, nafis gul, ham tikanak o‘shisi, ozuqa olishi mumkin. Bu zamin har ikkisini - yuksak ezgu niyatli, teatrga sodiq, uning uchun har qanday qurbonlikka tayyor ijodkorni ham, o‘ziga xaddan tashqari bino qo‘ygan, xudbin, san‘atdan faqat shuxratparastlik, o‘z manfaati yo‘lida foydalanuvchilarni ham o‘z o‘g‘itlari, boy ma‘danlari bilan birdek ta‘minlaydi. Shunga qaramay, xaqiqiy aktyorlarga yillar silsilasida, tarix zarvaraqlarida abadiy yashashi mumkin.

Bugungi kun zamonaviy aktyori tezkor shiddat-shaxtga ega, yangilikka intiluvchi bo‘lishi bilan birga, sokin, beg‘ubor ijod ilhomiga ham ega bo‘lishi kerak. Zero, tobora rivojlanib borayotgan asrimiz ijodkor, aktyordan, balki, ishchanlik, tezkorlikni talab etadi. Aktyor esa xalq ko‘zgusi. Oddiy insonlardan bir pog‘ona yuqoriroqda, oldinroqda, xalqqa o‘rnak. Teatr sahnasining tomosha zalidan bir-ikki pog‘ona yuqorida ekanligining ma‘no-mohiyati ham shundadir balki. Bu falsafa aktyorning zimmasiga san‘at va o‘zi oldida juda katta ma‘suliyat yuklaydi. U teatr san‘atining asosiy quroli sifatida o‘zini ham jismoniy, ham ruxiy tomonlarni turli zararli ta‘sirlardan ximoya qilishi, noziklik bilan tarbiyalashi lozim.

Aktyor ijodi jarayonining dastlabki bosqichida osonlik bilan topilgan shuhrat aktyor shaxsiyati va etik madaniyatiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘z-o‘zini sevisish va xudbinlik aktyorlik kasbida eng birinchi dushman sanaladi. Ijodiy o‘z-o‘zidan qoniqish aktyor mahoratini o‘tmaslashtiradi. Aktyor



doim o‘z kamchiliklarini bilishi, nazaorat qilishi, ularni bartaraf etishga intilishi lozim. Ba’zi xollarda aktyorni maqtash, qo‘llab –quvvatlash albatta extiyojga, zaruriyatga aylanishi mumkin. Biroq, bu borada talaba kelajak faoliyatida shuni inobatga olishi, o‘ta e‘tiyotkorlik va ziyraklik bilan ish ko‘rishi talab etiladi.

## **2. Aktyorlik san‘atining vazifalari badiiy yaxlit spektakl ko‘rsatish va tomoshabinlarni ma‘nan va ruhan poklashdir.**

Yosh aktyorda dramaturg, pyesa tiliga ham alohida hurmat xissini tarbiyalash avvalo aktyorning etik madaniyati talablaridan biri xisoblanadi. Aktyor biror-bir asar qahramonini ijro etar ekan pyesada keltirilgan so‘zdan ortiqcha so‘zni qo‘llamasligi, o‘zidan so‘z qo‘shmasligi kerak. Vaholanki, bugungi kunda teatrlarimizda bu masalaga mutlaqo e‘tibor berilmaydi. Aktyor har bir so‘z qadrini bilishi, xis etishi, muallif maqsadi, uslubiyatiga chuqur hurmat bilan qarashi lozim.

Aktyor sahnada partnyori oldida ham ma‘suliyatlidir. Zero, sahnada badiiy hayot aktyorlarning o‘zaro hamkorlikdagi hatti-xarakatlari orqali yuzaga keladi. Aktyorning partnyori oldidagi ma‘suliyati unga nisbatan e‘tiborli bo‘lishga, o‘ziga nisbatan bildirilayotgan munosabatni ilib olib unga qarshi munosabat bildirishga zamin yaratadi.

Aktyorning zimmasidagi ma‘suliyatlar qatorida uning o‘zi oldidagi ma‘suliyat ham mavjudki, aktyor buni qalban xis etishi, o‘zida ma‘naviy, ruxiy, ijodiy kayfiyatni tarbiyalashi, rivojlantirishi, asarb-avaylashi kerak bo‘ladi.

Teatr maktabi o‘quvchilari bilan badiiy havaskorlik ishtirokchilariga aktyorlik mahoratini egallayotgan paytida aniq tavsiya berib bo‘lmaydi. Aktyorlik kasbini o‘rgatib bo‘lmaydi. Ammo aktyorlik maxoratini o‘rganish mumkin. Darhaqiqat, sahnada rol ijro etishning bir qolipga tushirilgan qonun-qoidasi yo‘q. Xususan, Gamlet obrazini qanday yaratish mumkinligiga aniq ko‘rsatma berib bo‘lmaydi. Teatr san‘ati paydo bo‘lganidan boshlab aktyorning o‘zi nima uchun aynan shu rolni o‘ynayotganligi bilan bog‘liq eng muhim masalani o‘zi hal qilgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

O‘ylash, xis qilish, tayyorgarlik. Keling, bugun oqshom ko‘ptok o‘ynaymiz. Har birimizda bittadan ko‘ptok bo‘ladi. Albatta har biringizni partnyoringiz bo‘ladi va bir biringizga ko‘ptokni yerga urib, so‘ng ilib olasiz. Enda shu mashqni uch kishi bir biriga ko‘ptokni yerga urish orqali uzatadi. Bu uch tomonlama bajariladi, ya‘ni bir biriga avvalgi tarzda uzatadi. Mashq to‘g‘ri bajarilishiga har biri ma’sul. Yana bir mashqning talabi, ko‘ptok aynan yurakni nishon etib otilishi zarur. Guruxni xis qildingizmi? Ayni mashqni ko‘p bor takrorlanishi guruxni xis qilish va bir birini so‘zsiz ham anglashni o‘rgatadi. Bu biln siz o‘zingiz, partnyoringiz va ayniqsa yaratayotgan personajingizni xis qilishga o‘rgatadi.

Men sakkiz oyoqning biriga aylana olaman. Shundan keyin dunyoni aylanib chiqishga qaror qildim. (Tasavvur mashqlari) Xayolparastmi? Bu ham yaxshi. Chunki, tasavvur qilish foydali. Bu oddiy bajariladi. Ammo siz xis-tuyg‘udan narisiz degani emas muximi siz qanday xarakterga ega ekaningizni bilishingizda. Aynan personajni gavdalantirishda siz o‘zingizda borini unutib yangi tipni shakllantirishingizga to‘g‘ri keladi, bunda o‘zlashtirilgan texnikani ishga solasiz. Gap sizning xayotingiz xaqida boryapti, qaysikimutloqishingiz, kasbiy meningizdantashqarida. keling shu nuqtai nazardan o‘zingiz uchun ham mutloq yangi sifatingizni kashf etishga urinamiz. Qandaydir sizga ma’lum biron xabar ,axborotni xuddiki bilmaganday tuting deylik masalan sizning boshingiz o‘rnida biron bir buyum joylashgan. Ayni patda uham yumaloq va tanangizning boshqa a‘zalari bilan chambar chas bog‘liq. Boshingiz vertikal joylashgan a‘zo, shu tariqa xarakat pastga tomon, ya‘ni bo‘yinlarimizni xis etib ko‘ring. Uni ham biron shaklda tasavvur etib ko‘ring. Xis qiling. Xozir biri ustidagi boshqasini xarakatga keltiring. sekin asta bu xarakatlarga oyoq qo‘llarimiz ham qo‘shiladi. Yaxshimi? Mana shu xolatingizda biron narsani gapirib ko‘ring bu xarakatda bo‘la turib gapirish mavzu va masalalar o‘zgargan xolda takror, takror bajaring. Xozir bu mashqni xarakatlaringizni tezlashtirgan xolda bajaring.

Sen biroz avval bildirilgan fikrni takrorlayapsan? Aslida bularning ba’rini chuqur xis qilgan xolda bajarish lozim bo‘ladi. Bu mashqni bajarayotganingizda borgan sari murakab bo‘layotganini xis qilasiz.. mashqni mumkin qadar tez bajarar

ekansiz sezgi a'zolaringizni to'la ishlatishga xarakat qiling. Mashqlarni ongli bajarishga urining.

Aktor boshqa kundalik mashqlar bilan bir qatorda diqqat bilan kuzatuvchanlikni o'zida rivojlantirishi kerak. U o'zining hamda boshqalarning yurish-turishida, beixtiyoriy ravishda qilingan ishlarda ifodalangan yashirin sabab va maqsadlarni tushunib, belgilab olishi kerak.

Kuzatuvchanlik bo'lg'usi aktor uchun diqqatni rivojlantirish sifatida hamda ijod uchun materialni to'plash tariqasida kerakdir. "Hayotni kuzatishda – degan edi Stanislavskiy – aktor atrofiga oddiy parishonxotir odam bo'lib emas, yoki faqat hisob ma'lumotlarini to'playdigan buxgalter bo'lib emas, balki – odamlarning shart-sharoitlaridan kelib chiqib qiladigan ishlarini, qilmishlarini tubdan kuzatib, diqqat bilan o'rganishi lozim. Bu haqiqiy qiziquvchan ijodkorga xosdir<sup>1</sup>. Pedagog kuzatuvchanlikni tomosha sifatida emas, balki ularni xatti-harakatday tushunishlari kerak ekanligini talabalardan talab qilishi kerak, ya'ni qiziq hodisalarni kuzatishni, hayotdagi voqealarni, odamlarning fe'l-atvorini o'rganib, ularni tanlab, baho berib o'z ishlarida foydalanishni o'rgatishi kerak. Diqqat va kuzatuvchanlik mashqlarida pedagog doimiy ravishda talabalar tasavvurini rivojlantirib, ularning diqqatini har xil gap sotishlardan ozod qilib, harakatda faxmlangan his-tuyg'ularni egallashga yo'naltirishi kerak. Talabalar atrofdagi voqea-hodisalarni kuzatish, ularni ko'rib, tushunish, ularning faqatgina tashqi xolini emas, balki ichki obyektiv qonuniyatlarini tushuna bilish, kuzatilayotgan odamning fe'l-atvorini aniqlash, chuqur tahlil qilish uning kasbiy odatlarini to'liq o'rganish kabi muhim masalalarga butun e'tiborini bermoqlari lozim. Mashg'ulotlar vaqtida talabalar, kuzatgan odamlarning harakatlarini, fe'l-atvor xususiyatlarini ko'rsatishadi. Bu bo'limda biz talabalardan kuzatgan odamni "to'liq holda" emas, balki bu bosqichning birinchi navbatida uning tashqi o'ziga xosliklarini kuzatishni o'rgatamiz.

---

<sup>1</sup> К.С.Станиславский. Танланган асарлар. 2-жилд, 125 б.

Dastavval kuzatilayotgan odamning faqat o‘ziga xos xarakterli fe’l–atvorini topishadi. Masalan: yurish–turishi va o‘zini tutishiga e’tibor berish kerak. Talabalar avval uyalib, keyin jonu–dillari bilan kuzatgan odamlarini ko‘rsatib berishdi. Bizning ko‘z o‘ngimizda xilma–xil odamlarning «yurishlari, o‘zini tutishlari» namoyon bo‘ldi va bu odamlarning timsollaridan ularning ichki dunyosi ko‘rina boshlaydi. Masalan, uchun uzoq bir qishloqdan kelgan qiz. U parishon, sarosimada, vaqti–vaqti bilan qo‘lidagi qog‘oz parchasiga qarab qo‘yyapti, qog‘ozda u boradigan manzil yozilgan, ammo u gavjum shaharning shovqinidan bezovtalanayapti. Lotin alifbosida yozilgan ko‘chani nomini o‘qiy olmasdan, boshqa ko‘chaga o‘tib ketadi. Manna endi sahnada badavlat, o‘ziga ishongan odam paydo bo‘ldi. U shoshmasdan uyqu oldidan sayr qilmoqda. Sahnaga baland poshnali tuflida, bir xil ritmda tebranib bir qiz chiqib keladi. U to‘xtab zalga nazar tashlaydi. O‘zining nigohi bilan barchaning diqqatini o‘ziga jalb qilishni xohlaydi. Sahnaga boshiga tog‘ora qo‘yib olib, lapanglab, yoshi o‘tgan ayol chiqadi. U atrofga alanglab, qayerga borishi kerakligini aniqlaydi. Ro‘molning uchi bilan yuzidagi, bo‘ynidagi terini artib qo‘yadi. Kerakli joyni aniqlagach, chiqib ketadi. Endi sahnaga yosh qiz yugurib chiqib keladi. U zalga qarab to‘xtab qoladi va tasavvuridagi vitrinaga osib qo‘yilgan ro‘yxatlarni ko‘zdan kechiradi. Biz bu abiturientlarning ro‘yxati ekanligini tushunib olamiz. Ro‘yxatda o‘z nomini topolmagan qizning lablari cho‘chchayadi, lekin, hali hayot oldinda ekanligini tushunib achinmay jilmayib chiqib ketadi. Undan keyin sahnaga bir bezori yugurib chiqadi, uning cho‘ntaklari olma bilan to‘lgan. Tez – tez nafas olishidan uni orqasidan kimdir quvlagani bilinib turibdi. U yoq bu yoqqa alanglab, hech kim orqasidan kelmayotganligiga ishonch hosil qilib, yerga o‘tiradi va rohatlanib olma yeya boshlaydi. Birdan diqqatini kimningdir oyoq tovushlari bo‘ladi, u o‘rnidan turib, qochib ketadi. Uning ketidan qo‘lida shapkasini mijig‘lab, shir–shir qilib, salmoqlanib bir bolakay chiqib keladi, uning boshi egilgan. Vaqti–vaqti bilan burnini tortib qo‘yadi va bir qo‘li bilan uni artib turadi. Bu bolakayning qiyofasida to‘polonchi maktab bolasining avzoyi ko‘rinib turadi. U dakki yemaslik uchun ko‘chani kuzatadi va qochib ketish uchun yo‘l izlaydi. Miyasida sarf qilgan pullarni

hisoblab, magazindan xarid qilingan narsalarini ko‘targan bir erkak chiqib keladi. U to‘xtab, qo‘lidagi yuklarini pastga qo‘yib, nimalarnidir bermoqlari bilan hisoblab ko‘radi. Qolgan pulini ko‘rish uchun hamyonini olmoqchi bo‘ladi va birdan uni kassaning oldida unutib qoldirgani esiga tushadi.

Ana endi, sahnaga bemalol qadam tashlab, qora ko‘zoynak taqqan, qo‘lida mashinaning kaliti ilingan zanjirni dam–badam aylantirib o‘ynab, og‘zida tishkovlagichli bir yigit chiqib keladi. Sahnaning oldiga yaqinlashgach, u asta ko‘zoynagini olib, tomoshabin o‘tirgan zalga qarab turadi, go‘yo do‘kondan kerakli narsani izlayotgandek. Lekin ko‘ngliga yoqqan narsani topmagach, ensasi qotib, ko‘zoynagini taqib chiqib ketadi.

Bunday mashqlarni bajarayotgan vaqtda ortiqcha mayda–chuyda xatti-harakatlarni ko‘rsatmasdan, ularni olib tashlab, o‘ziga xos fe‘l–atvorning tipikligini belgilab beradigan harakatlardan foydalanish kerak. Ijodkor aktyor kuzatayotgan odamlarning o‘ziga xos umumiyliklarini bizga yetkazib Bera olgan taqdirda tomoshabin bu qiyofani oldin ko‘rgan, tanish yoki bo‘lmasa mutlaqo notanish chehra deb ajratib oladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Aktyorda badiiy did va etik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Turli ichki xissiyot, xislat-fazilatlarni ichki tasvir texnikasi orqali ifodalab bering.
3. Xasad, xudbinlik, beshavqatlik, qo‘rqoqlik, yovuzlik kabi xislatlar bo‘yicha xotirada muxrlangan kadrlarni tasvirlang.
4. Yaxshilik, ezgulik qilgan, etik madaniyatiga ega bo‘lgan insonni xotirangizda tiklab tasvirlang.

**2-Mavzu: Aktyorning rejissyor, dramaturg, kompozitor va rassom bilan ijodiy hamkorligi. Progon – badiiy yaxlitlik darajasini aniqlovchi jarayonda aktyorning ahamiyati. (2 soat)**

**Reja:**

2.1. Aktyorning o‘z mizanssenasini yaratishi va birovning birovning mizanssenasini asoslashi

2.2. Progon – badiiy yaxlitlik darajasini aniqlovchi jarayonda aktyorning ahamiyati

**Tayanch iboralar:** Tayanch iboralar: aktyorda badiiy did va etik madaniyat, insonning emotsional xotirasi, aktyor xis-tuyg‘usi, mantiqiy – izchillik, improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat, mushaklar erkinligiga erishish.

**1.1. Aktyorning o‘z mizanssenasini yaratishi va birovning birovning mizanssenasini asoslashi**

Sizlar o‘z tajribangizdan bilasizlarki, aktyor uchun tekis va bo‘sh joy qanchalik noqulay, unda diqqatni to‘plash, kichkinagina mashqda yoki soddagina etyudda kishi o‘zini topib olishi amri maholdir.

Kani shunaqa, xuddi konsert estradasidagi singari quruq joyda, sahnaning oldiga Gamlet, Otello, Makbet rollarining butun «insonning ruhiy hayotini» ko‘rsatib ko‘ring-chi. Buni rejissyorning yordamisiz, mizanssenasiz, buyumlar va mebelsiz qilib ko‘ring-chi. Ularga o‘tirish, suyanish ular atrofida truppalar hosil qilish mumkin! Axir bunday vaziyatlar sahnada yashamoqqa va o‘zimizning ichki xolatimizni plastik ravishda ifodalashga yordam beradi. Bunga sahnaning oldida, ustundek qotib turib emas, aksincha, turlicha boy mizanssenada erishmoq mumkin. Bizga uchinchi o‘lchov, ya’ni sahna satxi kerak, biz uning ustida yuramiz. uning ustida yashaymiz va xatti-harakat qilamiz. Bizga uchinchi o‘lchov birinchi, ikkinchi o‘lchovga nisbatan zarurroqdir. Orqada, bizning orqamizda, genial rassomning ajoyib dekoratsiyasi osilib turganidan artistlarga nima foyda? U orqada turgani uchun biz uni ko‘pincha ko‘rmaymiz, U bizni faqat yaxshi

o'ynashga. o'z muxitimizga loyiq bo'lishga majbur qiladi, u bizga yordam bermaydi, chunki rassom uni yaratayotganda faqat suratni o'ylagan va faqat o'zini ko'rsatgan, artistni esa unutib ketgan.

Suflyor xujrasi oldida turib olib, xech kimning yordamisiz, mizanssenasiz, rejissyor va rassomsiz pyesa va rolning butun mohiyatini ko'rsata oladigan bunday geniylar, bunday texniklar qani?!

San'atimiz xech kimning yordamisiz artistning yakka o'zi ijodiy vazifani bajarishga imkoniyat beradigan psixotexnika sohasida eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgunga qadar bizlar rejissyorning va kulisa orqasidagi spektakl ijodkorlarining yordamiga muxtojmiz, chunki har xil dekoratsiya, planlashtirish, yorug'lik, tovushlar va bo'lak qo'zg'atkichlar ularning qo'lidadir.

Nega burchakka suqilib oldingiz? - deb murojaat qildi Arkadiy Nikolayevich Maloletkovaga qarab.

Men... uzoqroqda O'tirmasam bo'lmaydi! - dedi u hayajon ichida gangib qolgan Vyunsovdan yashirinish uchun yana ham burchakka tiqilib olarkan.

-Nega hammalaring to'planib oldingiz? - dedi Torsov, eng shinam burchakda, stol yonidagi divanga o'tirarkan, Arkadiy Nikolayevichning kelishini ko'rayotgan bir gurux o'quvchilarga qarab.

Anekdotlar aytilyapti... shunday... quloq solib o'tiribmiz, - deb javob berdi chizmakash

Govorkov ikkovingiz lampa oldida nima qilyapsizlar? - murojaat qildi Arkadiy Nikolayevich Velyaminovaga qarab.

-Men... men... bilmayman... nima deyshimni bilmayman... -dedi hijolat tortib qizcha. - Xat o'qiyapmiz... shuning uchun... ah nima uchunligini o'zim ham bilmayman...

- Nega siz Shustov bilan yuribsiz? - meni so'roqqa tutdi Torsov.

-Bir narsani muhokama qilyapmiz. - javob berdim men.

Xullas, - deb yakun yasadi Arkadiy Nikolayevich. - Har biringiz kayfiyatingiz, kechinmangiz va ishingizga qarab, hammadan qulayroq joyni

tanlagansiz, kerakli mizanssenani yaratgansiz va o‘z maqsadingizga ishlatgansiz, ehtimol, aksincha. Mizanssena sizlarga ishni, vazifani aytib bergandir.

Torsov kaminning oldiga o‘tirdi, biz esa unga qarab o‘tirdik. Ba’zilar uning so‘zlarini yaxshiroq eshitish niyatida o‘z stullarini unga yaqinroq surib olishdi men lampa turgan stolning yonidan joy oldim, chunki yozishim uchun qulaylik kerak edi. Govorkov bilan Velyaminova pichirlab gaplashib o‘tirish uchun nariroqqa siljishdi.

Endi aytinglar-chi, nega siz bu yerga, siz u yerga, siz esa stol yoniga o‘tirdingiz? -deb tushuntirib berishimizni ta’lab qildi Arkadiy Nikolayevich.

Biz yana uz xatti-harakatimiz xaqida unga hisobot berdik va ulardan Arkadiy Nikolayevich bu safar ham, bizlarning har birimiz o‘zimizcha, sharoitga, ishimizga, ruhiy xolatimizga va kechinmamizga qarab mizanssenadan foydalanganimizni asoslab berdi.

Shundan keyin Arkadiy Nikolayevich bizlarni xonaning turli burchaklariga olib bordi-da (har bir burchakda mebel turlicha qo‘yilgan edi) ular qanday kayfiyatlarni, hissiyot xotiralarini, takroriy kechinmalarni uyg‘otishini aniqlab berishimizni taklif qildi. Biz ushbu mizanssenadan qanday sharoitlarda qanday foydalanishimizni aniqlab berishimiz lozim edi.

Shundan sung Torsov o‘z xohishicha, bizlar uchun qator mizanssenalar yaratdi, biz esa qanday ruhiy xolatlarda. qanday sha-roitlarda, qanday kayfiyatda yoki berilgan shart-sharoitda u bizga ko‘rsatib berganicha o‘tirishimiz qulayligini eslashimiz va belgilashimiz kerak edi. Boshqacha qilib aytganda, ilgari o‘z ruhiy xolatimizni, xatti-harakat vazifasini sezishimizga qarab o‘zimiz mizanssena topgan bo‘lsak, endi bu ishni bizning o‘rnimizga u bajarar edi, biz esa birovning aytgan mizanssenasini faqat asoslab berishimiz, ya’ni unga tegishli kechinma va xatti-harakatni topishimiz, ulardan tegishli ruhiy xolatni aniqlashimiz lozim edi.

Torsovning so‘ziga ko‘ra, ikkala birinchi xolatda - o‘z mizanssenamizni yaratish va shuningdek, uchinchi xolatda - birovning mizanssenasini asoslash - aktyorning tajribasida doimiy uchrab turadi. Shuning uchun ulardan yaxshi foydalana bilish kerak ekan.



Keyin «aksincha isbotlash» tajribasi o‘tkazildi. Arkadiy Nikolayevich bilan Ivan Platonovich darsni boshlashga Hozirlanganday o‘tirishdi. Biz «ishga mos ruhiy xolatda» O‘tirdik. Ammo Torsov biz tanlagan mizanssenami tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgartirib yubordi. U o‘quvchilarni jo‘rttaga noqulay, biz qilmoqchi bo‘lgan ishimizga va ruhiy xolatimizga qarama- qarshi ravishda o‘tkazdi. Ba’zilar ancha olisda, boshqalar garchi yaqin yerda o‘tirgan bo‘lsalar ham, muallimga orqa o‘girib olgan edilar.

Mizanssenaning ruhiy xolat va ish bilan mos emasligi tuyg‘uni chalkashtirar, ichki noqulaylikni keltirib chiqarar edi.

Bu misol mizanssena bilan artistning ruhiy xolati o‘rtasi–dagi aloqa qanchalik zarur ekanligini sezilarli darajada ko‘rsatib berdi va bu aloqaning uzilishi yomon xol ekanligini isbotladi.

Keyin Arkadiy Nikolayevich butun mebellarni devorga taqab qo‘yishni, ularni yoniga hamma o‘quvchilarni o‘tkazishni va o‘rtaga-quruq polga bitta kreslo qo‘yishlarini buyurdi.

Shundan keyin, har bir o‘quvchini navbat bilan chaqirib, ta–savvur nimalarni o‘ylab topishi mumkin bo‘lsa, shu kreslo bilan hamma vaziyatni qilib ko‘rishlikni taklif qildi. Butun vaziyatlar, albatta. ichki tasavvur to‘qimasi berilgan shart-sharoitlar va tuyg‘u bilan asoslangan bo‘lishi shart. Biz mashqni navbatma-navbat ko‘rsatdik, mizanssenaning har biri, gruppaga yoki vaziyat qanday kechinmaga undashini aniqladik yoki teskarisini. qanday ichki xolatlarda qay xildagi pozalar o‘z-o‘zidan qilinishini ko‘rdik. Bu mashqlar yaxshi, qulay va boy mizanssenani, uning mizanssenaligi uchun emas, balki u chaqiradigan va belgilaydigan tuyg‘ular uchun qilinayotganini yana ham yuqoriroq baholashimizga majbur etdi.

Shunday qilib, - so‘zlariga yakun yasadi Arkadiy Nikolayevich. - bir jihatdan artistlar o‘zlari kechirayotgan ruhiy xolatiga. bajarayotgan ishlariga, vazifalariga qarab mizanssena axtaradilar, ikkinchi tomondan esa ruhiy xolatning uzi. vazifa va ish bizga mizanssena yaratib beradi. Ular ham bizning hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatimizni qo‘zg‘atuvchilardan biri hisoblanadi.

Odatda sahna jihozlari, yoritilishi, tovushlari va boshqa rejissyorlik usullari bilan biz birinchi navbatda parterda o'tirgan tomoshabinlarni lol qilishni istaymiz deb o'ylaydilar. Yo'q. Bularga murojaat qilishimizning boisi tomoshabinlardan ko'ra ko'proq artistlarning o'zlari uchun kerakdir. Biz ularga butun diqqatlarini sahnada bo'layotgan narsaga qaratishlariga va undan tashqarida bo'lgan narsalarga e'tibor bermasliklari uchun yordam berishga urinamiz. Bordi-yu, biz tomonda ramkaning aktyorlar turgan tomondagi yaratilgan ruhiy xolat, pyesaga mos ekan, demak, u taqdirda ijod uchun hissiyotlarni eslab qolish va kechinmani qo'zg'atuvchi to'g'ri sharoit vujudga kelgan bo'ladi.

## **2.2. Progon – badiiy yaxlitlik darajasini aniqlovchi jarayonda aktyorning ahamiyati**

Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatining kuchi bizning ishimizda katta ahamiyatga egadir. U qanchalik qulay, o'tkir va aniq, bo'lsa, ijodiy kechinma shunchalik ravshanroq va to'laroq bo'ladi. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati bo'sh bo'lsa, u sezilar-sezilmas, noaniq tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Ular sahnaga yaramaydi, chunki ta'sirchan bo'lmaydi, ko'rinmaydi, tomosha zaliga kam yetib boradi. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati hakidagi keyingi suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, uning kuchi, davomati va ta'siri turlicha bo'lar ekan. Bu hakda Arkadiy Nikolayevich shunday dedi:

Ko'z oldingizga keltiring, siz ko'pchilik oldida haqoratlandigiz yoki tarsaki yedingiz, demak, butun umrga uyatga qoldingiz. Bunday voqeadan shunday kattiq larzaga kelgansizki, bu larza xatto uning butun boshqa tafsilotlari va tashqi jihatlarini bosib ketgan. Arzimas sabab yoki xech qanday sababsiz chekilgan bu alam- hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatlarimizda birdaniga lovillab ketadi va ikki barobar kuch bilan jonlanadi. Shunda yuz qizaradi yoki oqarib ketadi, yurak esa siqilib qattiq-qattiq ura boshlaydi. Bunday utkir, osonlik bilan hayajonlanuvchi tuyg'u materialiga ega bo'lgan aktyorga sahnada, hayotda larzaga solib chuqur iz qoldirgan hodisaning tuyg'usiga o'xshash tuyg'uni kechinish hech gap emas. Bunda texnikaning yordami kerak bo'lmaydi. Hammasi o'z-o'zidan sodir bo'ladi.

Artisgga tabiatning o'zi yordamlashadi. Bu tuyg'uni xotirlash va takroriy sezgining, xususan, kuchli, o'tkir, aniq va yashovchan turlaridan biridir.

Boshqa bir hodisani olaylik. Mening bir do'stim g'oyatda parishonxotir odam edi. U bir tanishinikiga bir yildan keyin ziyofatga boribdi va shunda uy soxibining sevimli, jajji o'g'lining salomatligi uchun qadah ko'taribdi.

Bolaning sog'ligi uchun ko'tarilgan bu qadahni hamma chuqur sukunat bilan qarshi olibdi, shundan so'ng uy bekasi - bolaning onasi, hushidan ketib qolibdi. Ma'lum bo'lishicha, bechora do'stim sog'ligi uchun qadax ko'targan bolaning o'lganiga bir yil o'tgandan keyin berilayotgan yil oshi ekanini unutib qo'ygan ekan. «Shunda kechirgan holatimni o'la-o'lgunimcha unutmayman!» - deb iqror bo'ldi og'aynim. Biroq, bu holda tuyg'ular atrofda bo'lgan voqeani bekitib qo'ymadi, u holat tarsaki yeyilganda bo'lgan edi, shuning uchun do'stimning xotirasida kechinmaning o'zi emas, balki uning ayrim, ayniqsa, aniq momentlari va voqeaning vaziyati ravshan saqlanib qolgan. U ro'parasida o'tirgan mexmonning quti o'chgan basharasini ham, yonidagi xijolatdai yerga qarab olgan xotinni va stolning narigi boshidan chiqqan nidoni ham eslab qolgan.

Hozir, bu voqeaga uzok vaqt o'tgan bo'lsa ham, uning ko'nglida o'z-o'zidan yil oshi vaqtidagi boshidan kechirganlari to'satdan jonlanib ketadi. Biroq, ba'zan birdaniga buni qilishni uddasidan chiqolmaydi, shuning uchun bu baxtsiz hodisa bilan bir vaqtda bo'lgan vaziyatni eslashga to'g'ri keladi va shunda birdaniga yoki asta-sekin tuyg'uning o'zi ham jonlanib ketadi.

Mana bu - ko'pincha psixotexnika yordamini talab qiluvchi anchagina bo'sh yoki, aytaylik, o'rta darajadagi hissiyot-xotiralarining yashovchanligi va kuchiga misol bo'la oladi. Men endi shunga o'xshash uchinchi hodisani aytib beraman. Bu voqea ham usha parishonxotir do'stim bilan sodir bo'lgan, farqi shundaki, ko'pchilik o'rtasida emas, betma-bet, o'zaro suxbatda bo'lib o'tgan.

Gap bunday: ammaning qizi onasining vafotidan keyin kelib, uning tobuti ustiga qo'yish uchun do'stim yuborgan gulchambar uchun minnatdorligini bildirmoqchi bo'lgan. Qiz minnatdorchilik izhor qilib bo'lmasdanok. parishonxotir

do'stim mexribonlik yuzasidan «ammasining» (marhumaning) «salomatligini» so'ragan.

Bu xijolatvozlik ham uning xotirasida saqlanib qolgan, lekin ilgari, ya'ni qadah ko'targaniga nisbatan ancha xiraroq qolgan. Shuning uchun, bordi-yu, do'stim ijodiy maqsadlari uchun o'zidagi shu tuyg'u materiallaridan foydalanmoqchi bo'lsa, dastlab juda katta ichki ishni bajarishga to'g'ri keladi. Buning sababi, hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatidagi xotiralarning izlari chekkadan yordam olmay, mustaqil ravishda jonlanishi uchun aytarliq chuqur va o'tkir bo'lmaganidadir.

Sahnaviy amaliyotga ham to'xtalgan Aristotel "Poetika" yakunida tragediyani ba'zan tanqidga uchrashiga aktyorlar ijrosi sabab bo'lishini ham izohlaydi. Agar ijrochilar, ya'ni aktyorlar tomoshabin tushunmay qoladi deb:

— o'zlaridan biron narsa qo'shmasa;

— bemaza aktyorlarga o'xshab mumkin qadar ko'p harakat qilishmasa;

— masxarabozlarga xos imo-ishoralar, qiliqlar qo'shishmasa, tragediya doim yuqori mavqega ega bo'lib qoladi. Demak, bu tanqidlar dramaturgga emas, balki aktyorlik san'atiga daxldor. Amaliyotda o'z vazifalarini to'g'ri bajarmayotgan, xarakter yaratolmaydigan iqtidorsiz aktyorlarning harakatini inkor etish kerak, deydi Aristotel.

Kechinma san'ati talablariga javob beradigan ijodkorlik tuyg'usini to'g'ri tarbiyalash hamda personajlar xarakterini o'zlashtirish jarayoni tajribada sinab ko'rildi. Xarakter tahlili personaj to'g'risida uch bosqichli ma'lumot jamlashdan boshlanadi va u quyidagi tartibda bajariladi. Birinchisi, muallifning personajlarga bergan tarifi — jinsi, yoshi, kasbi, yashayotgan muhiti haqidagi ma'lumotlar pyesadan va uning remarkalaridan terib olinadi. Ikkinchisi, personaj haqida boshqalar tomonidan bildirilgan fikr, ta'rif va izohlar terib yoziladi. Uchinchisi, personaj o'zi-o'zi haqida aytgan o'y-fikrlar, monologlar terib ko'chiriladi. Jamlangan material asosida personajga xarakteristika yoziladi. Bu xarakteristikada u nimani yoqtirishi, yoqtirmasligi, maqsadi, nimadan qo'rqishi, nima uchun kurashayotganligi, bu kurashda ustun va zaif tomonlari aniqlanadi. Eng muhimi

muallif o‘z g‘oyasini ochish uchun bu personajga nima uchun shunday xarakter bergani anglab yetiladi. Shundan so‘ng voqealar tartibida, ya’ni kartinama-kartina personajining bajaradigan vazifalari, maqsadga muvofiq xatti-harakatlari belgilanadi. So‘ngra rolning intilishi (perspektiva), tugun, rivoj, avj, keskin burilish (peripetiya) joyi va yechimi aniqlanadi.

Allomalarning xarakter masalasidagi fikrlaridan quyidagi xulosaga kelish mumkin. Asarning mazmuni qanchalik salmoqli va odamlar hayoti uchun muhim bo‘lsa personajlar xarakteri shu qadar yuksak bo‘ladi. Demak, xarakterlar o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lishi uchun: voqealar tizimi; personajlar fe‘l-atvoriga mos so‘z (til); tabiiy va ta’sirchan tugun; voqealar rivoji; avj va mantiqiy yechimga egaligi e’tiborda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Jonli hissiyot orqali personajlar tuyg‘ularini ifodalab, tasvirlanayotgan voqea va g‘oyaga mos xarakter yaratibgina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Sahnaviy xarakter yaratishdek mashaqqatli va murakkab jarayonga teatr ahlini, yosh dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar hamda teatrshunoslar diqqatini qarata olsak maqsadimizga erishgan bo‘lamiz. Chunki spektaklning badiiy yaxlitligida va tomosha g‘oyasini ifodalanishida aktyorlar talqin qilgan xarakterlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy dramaturgiya tarixini tahliliy o‘rganish, ulug‘lar yaratgan xarakterlarni teatrlar qanday talqin qilganligi xususida tadqiqotlar olib borish haqida o‘ylab qo‘rish zaruratga aylandi. Yosh ijodkorlar uchun amaliy qo‘llanma sifatida o‘zbek dramaturglarining sara asarlari to‘plamini nashr qilish o‘zbek sahna san’atini yangi badiiy bosqichlarga ko‘tarilishiga zamin yaratadi.

Aktyorlar sahna fuqarosiga aylanib, xarakter yaratish borasidagi o‘z burchlarini ado etmasalar, bu masala bahs-munozaralarga aylanib boraveradi. Chunki, ularning xarakter yaratishga e’tiborsizligi sahnada, dublyajda, seriallarda, kino va televideniyada, hatto klip yoki reklamada ham tobora oshkor bo‘lib bormoqda.

Sahnaviy xarakter yaratishning nazariy va amaliy jihatlarini mashaqqat bilan o‘zlashtirgan aktyorlar o‘z rollarini obraz darajasiga olib chiqa oladilar va badiiy

yaxlit spektakllar yaratilishiga o‘z hissalarini qo‘shib, ularni millatning ma’naviy va madaniy mulkiga aylantiradilar.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Etyud nima?
2. Mizanssena nima?
3. Xissiyot va xotira uchun mashq tayyorlab kelish?
4. Etyud tayyorlab kelish?

**3 mavzu. Namoyish etish san’ati maktabining talablari.**

**“Biomexanika”-serqirra ijrochilik talablarining yutuq va kamchiliklari.**

**(2 soat)**

**Reja:**

3.1. Aktyorning asosiy vazifasi bo‘lgan o‘z tovushining ranglarini rivojlantirish, murakkab ijrochilik san’atini egallash san’atini o‘zlashtirishi.

3.2. “Biomexanika” – serqirra ijrochilik talablari aktyorning individual ijodining belgilovchi eng yuqori ijrochilik mahoratining kategoriyasidir.

**Tayanch iboralar:** Tayanch iboralar: aktyorda badiiy did va etik madaniyat, insonning emotsional xotirasi, aktyor xis-tuyg‘usi, mantiqiy – izchillik, improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat, mushaklar erkinligiga erishish.

**3.1. Aktyorning asosiy vazifasi bo‘lgan o‘z tovushining ranglarini rivojlantirish, murakkab ijrochilik san’atini egallash san’atini o‘zlashtirishi.**

Insonning ovozi xilma-xil psixologik ranglar bilan boy, shuning uchun ham har bir kuylovchi aktyorning asosiy vazifasi o‘z tovushining ranglarini rivojlantirish, murakkab ijrochilik san’atini egallashdir, bu uning ijodiy negizi va

shu bilan birga aktyorning individual ijodining belgilovchisi bo‘lib, uning eng yuqoridagi ijrochilik mahoratining kategoriyasidir. Qanday qilib ovoz tovushi bilan u yoki bu musiqali ahvolni, ishtirok etuvchining kayfiyatini tasvirlashi mumkin va tuyg‘ularni ifodalash uchun qanday ohangni ishlatish kerak?

Biz oddiy musiqali ohangni, ya’ni biron kuy yoki notaning aytilishini, tovushlarning o‘zaro bog‘lanishini emas, balki tovushning ma’noli ohangini nazarda tutyapmiz. Masalan, inson bir xil tovushda «seni sevaman» va «sendan nafratlanaman», degan gapni aytolmaydi. Har birida, albatta, o‘ziga yarasha ohang ishlatiladi, ya’ni ma’nosiga mos bo‘lgan intonatsiya. Demak, kuylashning o‘zi va uning texnikasi kuylovchi aktyor bo‘lishi uchun yetarli emas. Qo‘shiq ijrosida mashhur san’atkor, aktrisa, professor Saodat Qobulova ohangga juda katta ahamiyat berar edi. U tovushning intonatsiyasini ijro etayotgan timsolning ta’rifiga, aniq vaziyat bilan bog‘langan ruhiy holatiga moslashtirardi, intonatsiya orqali hamkoriga va tomoshabinga emotsional ta’sir etardi. Berilgan shart-sharoitda timsolning ohangi, ya’ni tovushning intonatsiyasini qidirish jarayoni-bu vokal san’atini xatti-harakatli qiladigan va musiqa orqali yozilgan dramani ifodalaydigan eng muhim narsadir. Pedagog-rejissyor talabalar bilan birgalikda rol ustida ishlagan vaqtda unga nafaqat ifodaviy vositalarining (ritm, temp, dinamika, nozik farqlar va ulardan kelib chiqqan aktyorlik mahoratining vazifalari) muhimligini tushunish, balki texnikasining asosini ham bilish kerakligini tasdiqlaydi. Bu pedagog-rejissyor talabaning diqqatini xonandalik texnikasining elementiga jalb qilish kerak ekan, degan gap emas. U talabalarning diqqatini, kerakli ifodaviy vositalarini topishga yo‘naltirishi kerak. Gap ayrim bir ma’noda, «tovushning rejissurasi» haqida ketayapti deb tushunishimiz mumkin. Albatta, pedagog-rejissyor, tovushni yo‘lga solish, uni chiqarish, cho‘zish kabi masalalar bilan shug‘ullanishi kerak emas, ammo obrazdan, janr ta’rifidan va qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqib, tovushning tembr, emotsional, psixologik ranglarini bilib, u talabaga nafaqat so‘zning, balki tovushning ham mag‘zini chaqishga yordam berishi mumkin. «Oddiy AAA tovushi bilan biz dilimizdagi hissiyotni ifodalashimiz mumkinligini tushunasizlarmi?», -deb so‘ragan edi

K.S.Stanislavskiy, kuylovchi aktyorning tovushiga kerakli psixologik rangini tuzilishiga yordam berib. «Lekin boshqa AAA tovushi bor. U berk, bo‘g‘iq, tashqariga erkinlik bilan chiqmasdan, ichkarida qolib, xuddi g‘ordan yoki tobutdan kelayotgan dahshatli, mash‘um ovoz bo‘lib, g‘o‘ng‘illab aks sado etadi. Makkorona AAA tovushi ham bor. U parvonaday uchib chiqib, parma kabi dilga kirib, asabni buzadi. Quvnoq AAA tovushi ham bor. U dilimizdan o‘qday otilib chiqadi».

Qo‘yilgan ijodiy masalaga qarab, tovushning kerakli xarakteriga ega bo‘lgan jaranglashni so‘zda, tovushda ham topa bilish, ijrochidan ayrim intonatsion mahoratga ega bo‘lishligini talab qiladi. Inson xilma-xil psixologik ranglarni, o‘z tovushi orqali berish imkoniyatlari cheksiz. Ustozlarning ko‘pchiligida ijodiy fikrlarning nihoyatda kichik o‘zgarishlari, darhol tovushning psixologik rangida aks etadi.

Rassom yorug‘-soya va boshqa badiiy-ifodaviy vositalar orqali suratda o‘zining psixologik va emotsional mazmunini ifodalasa, kuylovchi aktyor ham o‘zining individual xususiyatlari bilan musiqiy spektaklning fikrini boyitadi. Lekin, kuylovchi aktyorlarning boshqa kategoriyasi ham borki, ular faqat bastakorning fikrini tashqi shakliga ega bo‘lishadi. Ular musiqiy matnni mexanik ravishda o‘rganib, ritm bilan bog‘langan tovushni «to‘g‘rilarcha», kerakli joyda ko‘tarib yoki pastga tushirib, bizga «kuylaydigan qo‘g‘irchoqlarni» eslatadilar. Bunday xonanda haqiqatan ham bastakorning fikrlarini va tuyg‘ularining nusxasini ko‘chiruvchisi bo‘ladi. Ular na san’atkor, na ijodkordirlar. Aynan shunday kuylovchi san’atimizga katta ziyon keltiradi.

Ma’lumki, dramatik teatrdan intonatsiya masalasi man qilingan. Musiqali teatrdan esa u butunlay boshqa ma’noga, boshqa ahamiyatga ega. Gap, intonatsiyani Shalyapin tushungan ma’noda, ma’nolilik haqida ketar ekan, biz aktyor «qanday» kuylayapti va «qanday» degan so‘zda «nimani» ifodalayotganini tushunishimiz kerak.

Xonandalarimiz ohang, ya’ni intonatsiya haqida o‘ylamaydilar, desa ham bo‘ladi. Ba’zan qobiliyatli aktyorda u o‘zidan o‘zi paydo bo‘ladi. Lekin intonatsiya



ustida biz atayin ish olib bormaymiz. «Intonatsiya» soʻzidan hayiqib, biz bu muammoni umuman olib tashladik. Intonatsiyani topish bu timsolning yechimiga oʻz hissasini qoʻshish deganidir.

«Musorgskiyning birdan bir, yagona ohangini topdim», - degan edi Shalyapin. Gap detallar haqida yoki har xil intonatsion usullar haqida ketmayotganligini tushunib turibmiz. Gap inson hayotining, «inson ruhiy hayotining», xalq hayotining, uning insoniy, ijtimoiy gʻoyasi haqida, umuman oʻzida koʻp komponentlarga ega boʻlgan, katta umumlashtirishlar haqida ketayapti.

Notaning, jumlaning, soʻzning, rolning intonatsion boʻyoqlari bu timsol ustida boʻlgan badiiy ishning natijasidir. Qahramonning intonatsiyasini qidirish sahna haqiqatini izlash deganidir. Ular haqiqiy timsol bilimlarining natijasida yaratiladi. Intonatsiya bu bizning ijodiy ishlarimiz, bizning izlanishlarimizdir. Ammo bu ijodiy ishlar, bu izlanishlar asarning musiqiy-dramaturgik materialini, uning mohiyatini sidqidillik bilan oʻrganishdir. Intonatsiya ustidagi ish bu rolning ichki mohiyatini hayajonlantiradigan ilmoqlarini qidirishdir. Afsus dirijyorlar, rejissyorlar, aktyorlar sahnada koʻpincha tinglovchini hayratda qoldiradigan, maʼlumot bermaydilar. «Piano», «forte» bor, xonanda qoʻshigʻini oʻz vaqtida boshlayapti, demak, hammasi yaxshi. Xonanda bastakorning ulugʻ asarini oʻrganib tomoshabinni hayratda qoldirmasdan, unga faqatgina maʼlumot beradi, chunki hayrat boʻlish uchun insonning oʻzi, uning qalbi hayajonlanishi kerak.

Kuylovchi aktyor bastakorning gʻoyasidan hayajonlansa, ifodalab berishi mumkin. Yozganlarining hammasini juda taʼsirli va yorqin ifodalab berishi mumkin. Bularsiz intonatsiya qidirish jarayoni befoyda boʻlib chiqadi. Intonatsiya bu maqsaddir. Unga aktyor tasavvur orqali erishishi mumkin. Kuylayotganini tasavvur qilish «koʻrish» juda muhim va katta ahamiyatga ega jarayondir. Shuningdek, eng muhimi bu aktyorga, talabaga toʻgʻri intonatsiyani topish, ashulasining har bir jumlasida maʼnolilik istagini yaratishga yordam berishdir.

Xonanda sanʼatida, uning intonatsion ifodaviyligida ijrochining nafaqat xarakter xususiyatlari va individual, oʻziga xos boʻlgan yechish imkoniyatlari, balki muallifning gʻoyasi va sahnalashtirish kerak boʻlgan asosiy mohiyati ham

belgilangan. Shuning uchun ham Shalyapin kuylovchi aktyorga vokal timsolining ish jarayonida, unga mos yaqqol badiiy ohangni qidirishning ahamiyatini astoydil belgilaydi. O‘zining xotiralarida shoh Ivan Grozniy timsolning izlanish yo‘llarini so‘zlab berganda, u shohning yovuz emas, balki aktyor bo‘lib chiqqanini, belgilab o‘tgan edi. «Kiraymi, yo‘qmi,-degan birinchi jumlamni men achitib, kinoya, ikki yuzlamachilik bilan gapirar edim. Bu shohni bo‘sh qilib, unga xos bo‘lmagan fazilatlarni ko‘rsatar edi. Bu hali shoh timsoli emas, balki soyasi, kichik belgisidir. Shoh Ivanning birinchi jumlasida, timsolning mag‘zi, uning asosiy mohiyati belgilanganligini tushundim. Sahnani takrorladim. Kuchli, daxshatli, qahri-g‘azab ovozi bilan vahshiyona bo‘kirib, g‘azab bilan xonani qarab chiqib, men savolimni takrorladim. Atrofdagilar qo‘rqqanidan qotib qolishdi. Bir jumlaning to‘g‘ri topilgan intonatsiyasi, zaharli ilonni badjahil arslonga aylantirdi. Shu intonatsiya «poyezdni» kerakli yo‘lga soldi, u esa xushtakini chalib, o‘qday uchib ketdi. Xonanda san’atining butun kuchi-to‘g‘ri olingan ohangda, so‘zning va jumlaning to‘g‘ri topilgan rangida».

Klassik bo‘lib qolgan ta’rifning ma’nosi nimada? Inson oddiy suhbatda ham o‘z fikrini ifodalash uchun nafaqat so‘z, balki uni ta’kidlash uchun ifodaviy talaffuzni ham ishlatadi. Insonning ohangida, ya’ni uning har xil ranglarga va tuslarga o‘tish qobiliyatida, katta ifodaviy imkoniyatlar bor. Agarda inson o‘z nutqida so‘zlarni kerakli ohangda talaffuz etmasa, unda uning nutqi jonsiz, bir xil, monoton bo‘ladi. Shunday qilib, bir jumlaning ohangi, Grozniy timsolni tushunishga yordam berib, uni fikr nurlari bilan boyittirdi va kerakli sharoitni topib, u buyuk ijodkor bo‘lganligi uchun shu sharoitni spektaklda ham yaratdi.

Xonandalik musiqaning ifodaviy ildizlari, nutq ildizlari bilan birdir. Bastakor o‘z asarida, ularni musiqaga xos shartli belgilar orqali tasdiqlaydi. Ammo bu belgilar kuyning psixologik rangini, jonli mohiyatini, ma’nosini emas, balki faqatgina intonatsiyaning shaklini, ya’ni ovozning ko‘tarilishini yoki pastga tushishini belgilaydi xolos. Shoirning so‘zi kabi, bastakorning nota belgilari, bu muallif fikrlarining ichki mohiyati emas, balki tashqi shaklidir. Faqat kuylovchi aktyor shu jonsiz belgilarni, so‘zlarni ongli ravishda o‘z ruhiy holatidan, jonidan

o‘tkazib, ularni o‘zinkiday qilib olib, jonlantirishi mumkin. Matndan kelib chiqib, ular musiqiy asarni o‘ziga xos bo‘lgan intonatsiya bilan ovozning psixologik ranglari orqali ijro etadilar va ehtimol, bastakorning o‘zida yetilib bormagan, musiqiy timsollarning qirralarini ham ko‘rsatadilar. Psixologik intonatsiya, so‘zning ma‘noli rangi bu kuylovchining hamma ifodaviy vositalaridan eng kerakli bo‘lib, shu vositani aniqlashda aktyorning ijodiy individual tomonlarini, mahoratini aniq ravishda belgilaydi. Bunday ohangning «to‘g‘riligi», so‘zning, jumlaning kerakli ranglari, o‘zidan o‘zi musiqiy matni yodlash natijasida paydo bo‘lmaydi. Bu timsol ustida ongli ravishda ishlash, ya‘ni musiqiy partituraning tahlil qilishda, tarixiy materialni o‘zlashtirishda, oliy maqsadni anglashda va butun xatti-harakat davomida, rolning ma‘noli vazifasini tushunishda, uning jismoniy holatini va ikkinchi planini topishda va hokazolarda ifodalanadi. Shunday qilib, intonatsiya, vokal timsolni yaratish va «insonning ruhiy hayoti»ni kechirish vositasi bo‘lib, ijrochi oldida turgan ijodiy masalalarga jiddiy qaraganligining natijasi bo‘ladi va sahna-timsolning ustida umumiy ishning jarayonida yetib keladi. Shu sababli rejissyor-pedagogning oldida turgan muhim vazifalaridan biri bu musiqa nutqning ifodaviyligining ustida ishlash, ohang harakatlarini qidirish jarayonida talabalarga faol yordam berish, chunki berilgan shart-sharoitda to‘g‘ri belgilangan xatti-harakat, kerakli ohangni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

### **3.2. “Biomexanika” – serqirra ijrochilik talablari aktyorning individual ijodining belgilovchi eng yuqori ijrochilik mahoratining kategoriyasidir.**

Sahnada bo‘layotgan har qanday hatti-harakat faollashib borishi kerak. Faollik tamoyilining mohiyati, Stanislavskiyning so‘zi bilan aytganda, “obraz va ehtirolarni o‘ynab bo‘lmaydi, balki obrazga kirib, ehtirolarning ta‘siri ostida xatti-harakat qilmoq kerak”. Aktyor sahnada harakat qilar ekan, asardagi qarama-qarshiliklar kuchayib borgan sari uning harakatlari ham asar mazmunidan kelib chiqqan holda faollashib borishi kerak. Aks holda tomosha yoki spektaklni tomoshabin tomonidan qabul qilishi susayadi va natijada asar

sahnada muvaffaqiyat qozonishi qiyin bo‘lib qoladi. Shuning uchun etyudlardagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, qahramonlarning harakatlarini faollashib borishiga erishish lozim.

Harakat - bu insonning malum bir maqsadini amalga oshirish yo‘lida qilgan qilmishidir. Harakat hamisha faol kechadigan jarayondir. Biz doim atrof-muhitga, narsalarga, tabiatga, odamlarga tasir ko‘rsatamiz. Bu tasir fikr bilan, tuyg‘u bilan, iroda bilan ifodalanadi. Bular bir-biriga uzviy chambarchas bog‘liqdir. Harakat aks harakatni keltirib chiqaradi. Bu ruhiyatimizga bog‘liqdir. Harakat asosiga qurilgan aktyorlik san‘atining ma’naviy, ma’rifiy ahamiyati va uning tarbiyaviy kuchi benihoyat kattadir. Aktyor uchun «yetakchi xatti-harakat» - personajning barcha harakatlarining asosi bo‘lib, u asosiy g‘oyaga, oliy maqsadga yetaklaydi. Yetakchi xatti-harakat barcha harakatning asosiy «qizil ipi» bo‘lib, alohida bo‘lak va kichik vazifalarni bir chiziqqa birlashtirib, oliy maqsadga yo‘naltiradi.

Yetakchi xatti-harakat oliy maqsadga olib boruvchi yo‘l. Erishishdagi qahramon xatti-harakati bilan belgilanadi, bu qahramonning barcha xarakatlari asosida o‘z oldidagi maqsadlariga yetishishi uchun qilingan ham ruxiy ham jismoniy xarakatida o‘z ifodasini topadi. Yetakchi xatti -harakat asarning asosi bo‘lib, unda bo‘ladigan kurashlar jarayonin i ochib beradi. Pyesaning yetakchi xatti-harakati deganda, Stanislavskiy, yetakchi xatti-harakat tushunchasini dramaturgik harakatga yaqinlashtirar edi. Dramaturgik harakatda, biz bilamizki, asardagi g‘oyaviy muammolar personajlarning barcha harakatlari yordamida ochib beriladi. Dramaturgik harakat «yetakchi xatti-harakat» hamda «qarshi harakatdan» tashkil topgan bo‘lib, «yetakchi xatti-harakat» ijobiy qahramonlarning asarning asosiy g‘oyasini ochib beruvchi barcha harakatlarda namoyon bo‘ladi. Dramaturgik harakat har qanday pyesada fabula bo‘yicha, ya’ni asosiy voqealar zanjiri orqali «voqealar qatori» bo‘yicha rivojlanadi. Shuning uchun Stanislavskiy aktyor va rejissyorlardan birinchi navbatda pyesaning fabulasini bilishlarini talab qilgan. Xulosa qilib aytganda, yetakchi xatti-harakat spektaklning yuragi, asosiy chizig‘i bo‘lib, o‘tayotgan kurashni,

qarama-qarshiliklarni ochib beradi. “Sahnada behuda yugurishning xojati yo‘q, - deydi Torsov. – Sahnada bekordan bekorga yugurish va azob chekish mumkin emas. Sahnada xatti -harakat qilaman deb, “umuman” harakat qilishning keragi yo‘q, balki asosli, maqsadga muvofiq va unumli xatti-harakat qilmoq kerak”

Talabalar bilan tanlab olingan asar ustida ishlar ekanmiz albatta mana shu so‘z yuritmoqchi bulgan fikrlarga tuqnash kelamiz. Biz talabalardan rolning fojeali joylariga kuchanish va zo‘rlanish bilan yondoshishi u yoqda tursin, hatto ko‘pchilik aktyorlar qilgandek, birdaniga ham emas, balki asta-sekin, izchillik bilan, mantiqan birin-ketin kelayotgan jismoniy xatti-harakatlarning kichik va katta haqiqatini sezmoq hamda ularga samimiy ishonmoq kerakligini o‘qtiramiz. Kupuncha biz sezilarli, ko‘rinarli, tushunishimiz oson bo‘lgan jismoniy hatti-harakatlarning mantiq va izchilligiga qarab ish tutamiz.

«Tuyg‘uning mantiq va izchilligi» dek murakkab masalani qanday hal qilish mumkun.

Biz olimlar emas, aktyorlarmiz. Bizning sohamiz-faollik, xatti-harakat. Biz amaliyotdan, insonlar tajribasi, hayotiy xotiralar, mantiq va izchillikdan foydalanamiz, sahnada qilayotgan ishimizning haqiqatligiga va ishonchliligiga erishmog‘imiz darkor.

Aktyor o‘z-o‘zimizga: «Agar men real hayotimda fojeaviy darajada chorasizlik ahvoriga tushib qolsam nima qilardim?» degan savolni berishdan iborat. Faqatgina ana shu savolga insonlarcha javob bering, bo‘ldi, boshqa hech narsaning keragi yo‘q.

«Fojeaviy darajada chorasizlik» holatiga, ya’ni murakkab ruhiy holatga tushib qolsam, nima qilgan bo‘lardim?-degan savolga siz qator g‘oyatda mantiqli, izchil xatti-harakatlar bilan javob berasiz.

Tuyg‘u mantiqi va izchilligi singari murakkab ruhiy masalani o‘zimiz yecha olmaganimiz uchun, uni o‘z holiga qo‘yib turamiz va tekshirishni bo‘lak, bizga tushunarli bo‘lgan soha, xatti-harakatlar mantiqiga ko‘chiramiz.

Jismoniy xatti-harakatlarning mantiqiy va izchil tashqi ko‘rinishini yaratar ekanmiz, agar sinchiklab qarasak, ichimizda bu yo‘lga yondosh holda boshqa his-

tuyg‘ularimizning mantiqiy va izchil yo‘li ham paydo bo‘ladi. Bu tushunarli: axir, ichki his-tuyg‘ularimiz biz uchun xatti-harakatlarni sezdirmagan holda paydo qiladi, ular ham ana shu xatti-harakatlarning hayoti bilan chambarchas bog‘langan.

Isbotlangan jismoniy va ruhiy xatti-harakatlarning mantiqi va izchilligi haqqoniylikka va his-tuyg‘ularga ishonchni vujudga keltiradi.

Kundalik hayotimiz tajribalarini, his-tuyg‘ularimizni qayta o‘rganib chiqmog‘imiz lozim.

His-hayajon sohasida biz yana o‘sha har doim hoziru-nozir-mantiq va izchillikka ro‘baro‘ kelamiz.

Mana endi ijodiy kechinma jarayonida mantiq va izchillikni his qilish haqida gapirsak.

Bu masalani qanday bo‘lmasin hal qilish kerak. Rostdan ham, haqiqiy kechinmaga asoslangan bizning san‘atimiz mantiq va izchillikni tuyg‘usini chetlab o‘tolmaydi-ku. Axir ularsiz haqiqat ham, qolaversa, ishonch ham, «men mavjudman» ham, bizning san‘atimiz, ijodimiz, kechinmamizga asoslangan barcha a‘zolarimizning beixtiyoriyligi ham yo‘q-ku.

Bu masalaga ilm nuqtai nazaridan emas, o‘zimizga juda yaxshi tanish bo‘lgan, tajriba, amaliy bilim, his-hayajon, ko‘nikma, odatlar va boshqa boshqalarga boy haqiqiy o‘z shaxsiy hayotimiz nuqtai nazaridan ko‘rib chiqaylik.

-«Agarda men talqin qilayotgan rolimning berilgan shart-sharoitiga tushib qolsam, odamlarcha nima qilgan bo‘lardim?», deb o‘z-o‘zingizdan so‘rang.

Bu savolga shunchaki, rasman emas, balki ro‘yi-rost va samimiy javob bering. Bu savolga na faqat aql, asosan tuyg‘u bilan iroda qatnashsinlar va javob bersinlar.

Bu ham hali kam, men javobni so‘zlar orqali emas, jismoniy xatti-harakatlar orqali olishni istardim.

Inson ruhiy hayotining ichki, ruhiy holatining mantiq va izchilligini anglamoq va aniqlamoq uchun, biz tanamizning muayyan, bizga tushunarli, aniq jismoniy xatti-harakatlariga murojaat etamiz. Biz ularning mantiq va izchilligini ruhiy atamalar emas, balki jismoniy xatti-harakatlar orqali anglaymiz, aniqlaymiz

va qayd qilamiz.

Agar ular chin, samarali va maqsadga muvofiq bo'lsa, qolaversa ichdan samimiy insoniy kechinmalar bilan tasdiqlangan bo'lsa, unda tashqi va ichki hayot orasida chambarchas bog'liqlik paydo bo'ladi. Ijodiy maqsadlarning amalga oshishida ana shundan foydalanish kerak.

Injiq, tutqich bermas tuyg'ulardan ko'ra, bizga yaqinroq jismoniy xatti-harakatlarga murojaat qilishimiz, ularni o'z ichki istaklarimizdan qidirishimiz, kerakli ma'lumotlarni inson sifatida o'zimga juda yaxshi tanish bo'lgan hayotiy tajribalarimizdan olamiz. Bunday paytlarda o'z xotirotlarimga va tabiatimga berilib ketaman.

Siz u yoki bu holatni, u yoki bu tuyg'uni talqin qilmoqchi bo'lar ekansiz, eng avvalo: «Ana shunga o'xshash sharoitga tushib qolsam men nima qilar edim?», deb so'rang. Yozib oling, xatti-harakatga aylantiring va ularni aynan xuddi shunday qilib rolingizga ko'chiring. Agar pyesa kuchli bo'lsa va unda haqiqiy hayot tasvirlangan bo'lsa, u holda xatti-harakatlarimizning hammasi bo'lmasa ham, qisman mos kelishi mumkin.

Yangi rolingizga taalluqli ana shunday savol va javoblarni yozib borishingizni juda ham maslahat qilaman. Bu shuning uchun ham foydaliki:

Yozma savol yoki javob vaqtida aniq nishonga uradigan so'zni qidirib topishingizga to'g'ri keladi. Buni esa savolga chuqur tushunib olmasdan qila olmaysan.

Aktyor uchun bunday yozuvlar bebaho ijodiy mahsul hisoblanadi.

Bir tasavvur qiling-a, bora-bora aktyorlik faoliyatingiz davrida siz to'qnash kelishingiz mumkin bo'lgan, pyesa va rollardagi barcha ichki holat va kayfiyatlarga mos keladigan ana shunday yozuvlar asta-sekin to'planib qoladi.

Rostdan ham, agar kishining ehtiroslaridan yaratiladigan barcha ba'zi onlarining ro'yxati bizning ixtiyorimizda bo'lganidami, agar biz ana shu ro'yxat bo'yicha yaratayotgan ehtirosimizning har bir tarkibiy qismini mantiqan va izchil kechinganimizdami, ba'zi bir aktyorlar singari, uni birdaniga qamrab olishga oshiqmasdan, asta-sekin, qismma-qism o'rganib chiqqan bo'lardik.

Bu yozuvlarda siz his-tuyg‘ular xotirangizga ruhiy mahsulingizning kattagina qismini qo‘shgan bo‘lasiz. Bu juda katta gap: axir bu hissiyotning mantiqi masalasini o‘rganishimizda juda qo‘l kelishi mumkin.

Mana, masalan, sevgi... Bu insoniy ehtiros qanday paytlarda shakllanadi-yu va u qanday xatti-harakatlarga undaydi?

Siz ana shu xatti-harakatlarning har birini fikran to‘g‘ri, dalillar bilan, chuqur o‘ylab, samimiy va to‘la-to‘kis bajarsangiz, avvaliga sevib qolgan kishining tashqi, keyinchalik esa uning ichki holatiga o‘xshash xatti-harakatlarga yaqinlashasiz.

Har tomonlama to‘la-to‘kis pyesada ana shunday holatlarning hammasi yoki eng muhim tomonlari u yoki bu darajada namoyon bo‘lib turadi. Aktyor ularni izlay boshlaydi va o‘z rolidan topadi. Ana shunday talablar bilan biz sahnada bir qator vazifa va xatti-harakatlarni bajaramiz, natijada ularning majmuidan hosil bo‘lgan holatni sevgi deb ataymiz. U «umuman» emas, qismma-qism yaratiladi. Aktyor bunday hollarda oshirib o‘ynamaydi, balki xatti-harakat qiladi, aktyorlarcha qiliq qilmaydi, balki insonlarcha kechinadi, u tuyog‘uning mohiyatini bachkanalashmaydi, balki uni his qiladi. “Sahna hatti–harakati ma’noli, mantiqiy va ketma-ket bo‘lishi kerak”- degan edi K.S.Stanislavskiy. Shuning uchun ham pedagogning asosiy vazifasi bu-talabani to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirishdan iborat. [2.K.S.Stanislavskiy Tanlangan asarlar. 2-jild,M.,1954 y. 57-b.].

Ammo o‘zlari talqin qilayotgan tuyg‘uning asl mohiyatini chuqur o‘ylab va tushunib yetmagan ko‘pchilik aktyorlar sevgini «umuman» katta bir kechinma deb tasavvur qiladilar. Ular katta kechinmalar bir qancha alohida lavhalar va lahzalardan tashkil topishini unutib qo‘yadilar. Ularni yaxshi bilmoq, o‘rganish, o‘zlashtirmoq va har birini alohida bajarmoq lozim. Busiz aktyor bir qoliplik va hunarpazlikning qurboni bo‘lishga mahkum.

Ammo afsuski, aktyor uchun o‘ta muhim bo‘lgan tuyg‘ularning mantiq va izchilligi sohasi hali sahna talablariga tatbiq etilmagan.

Butun hayotini ag‘dar-to‘ntar qilib yuboruvchi mudhish xabar, aktyorlar teatrda ko‘rsatganlaridek, birdaniga ta’sir qilmaydi: hozircha hech narsadan xabari yo‘q u quvnoq va xotirjam; hali xabar topmasdanoq - u o‘zini u yoqdan bu yoqqa



tashlab yoqavayron bo‘la boshlaydi. Hayotda esa bunday mudhish falokatni, keskin o‘zgarishni anglab yetish bir qator izchil va mantiqiy lahzalar, ruhiy bosqichlar orqali ro‘y beradi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. So‘z ustida ishlash deganda nimani tushinasiz?
2. Musiqali teatr aktyorligi tarbiyasida so‘zning ahamiyati deganda nimani tushinasiz?
3. Intonatsiya nima?
4. Tuyg‘u tushinchasi nima?
5. Izchillikga erishish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
6. Topshiriqlardan kelib chiqib sahna ko‘rinishi tayyorlash

**4-mavzu. Braxt teatri talqinini aqliy idrok etish masalasi. Kechinma san’ati maktabi talablari. Stanislavskiy sistemasi aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi. (2 soat)**

**Reja:**

- 4.1. Sahnalashtirish uchun rejalashtirilgan asarning dolzarbligi
- 4.2. Teatrlar repertuarining ijodiy jamoa badiiy saviyasini va mahoratini yuksaltirishdagi roli.

**Tayanch iboralar:** Tayanch iboralar: aktyorda badiiy did va etik madaniyat, insonning emotsional xotirasi, aktyor xis-tuyg‘usi, mantiqiy – izchillik, improvizatsiya, jismoniy harakat uslubi, jismoniy harakatlar uslubi, tashqi-jismoniy holat, ichki-ruxiy holat, mushaklar erkinligiga erishish.

**4.1. Sahnalashtirish uchun rejalashtirilgan asarning dolzarbligi**

Etyudda talabalar jonli karakterlar asosida obraz yaratishga urinmaydilar. Balki, qatnashuvchilar o‘z ismlari, o‘z shaxslari timsolida o‘zlariga tanish va yaqin bo‘lgan voqea, sharoitdan foydalanib harakat qiladilar. Ish jarayonida talabalar

orasida o‘z-o‘zidan jonli harakter xususiyatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin. Bunda pedagog ehtiyotkorlik bilan yondoshishi, uni charhlashi, rivojlantirishi kerak bo‘ladi. Boisi, o‘z hayotiy tajribasi asosida o‘z harakat mantiqini tuzish, sahnada tabiiy, jonli harakat qilishga intilish vazifasining o‘zi talaba uchun nihoyatda murakkab ekanini unutmaslik lozim. Bu vazifani qoniqarli, talabga muvofiq ravishda bajarish aktyorlik mahorati sirlarini egallash yo‘lida juda katta qadamdir. Etyud birinchi kursning ikkinchi yarmida, turli texnik mashqlar bilan birga olib boriladi. Yuqorida o‘tganimiz ko‘plab mashq misollarini sekin-asta yangidan-yangi shart-sharoitga moslashgan xolda etyudga aylantirish mumkinligini ta’kidlab o‘tgan edik. Oddiy bir mashqning etyud darajasigacha shakllanish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz. Talabaga oddiy hatti-xarakat – biror-bir qutini ochib ko‘rishni, u yerda unga atalgan sovg‘a borligi aytiladi. Tabiiyki talaba qiziqish bilan qutini ochadi. Quti ichida hech narsa yo‘q ekanini ko‘rib kutilmagan bu xolatdan hayron bo‘ladi. Uning yuz ifodalari, xatti-xarakatlari organik ravishda tabiiy sodir bo‘ladi. Buning sababi vaziyat va voqea talaba uchun haqiqatdan ham tasodifiy xisoblanadi. Pedagog talabadan ushbu mashqni yana bir bor qaytarishni so‘raydi. Bu safar talaba uchun tasodifiylik ta’suroti yo‘qoladi va u avvalgi hatti-xarakatini eslab uni aynan qaytarishga urinadi. Tabiiyki endilikda uning hatti-xarakatlarida tabiiylik, organiklik xususiyati yo‘qoladi. Pedagog talabaning xatolarini tuzatib voqea tokrorlanishi jarayonida ham xatti-harakat mantiqiyligini aniqlashga yo‘l ko‘rsatishi kerak. U talabaga aniq va ma’lum mezansahnani takrorlash emas, quti ichidagi narsaga qiziqish va uning ichida hech nima yo‘qligini “tasodifiy” ravishda bilish jarayonini ifodalab berishga undasin. Buning uchun voqeaga yangidan yangi talab va savollar qo‘yib shu orqali mantiqiy davomiylik aniqlanadi. Xo‘sh, quti talabaga kim tomonidan va nima uchun berildi? Qutining ko‘rinishi, hajmini aniqlash, uning ichida nima borligiga qiziqish kerak. Balki qutining ichida talaba orzu qilgan buyum bordir? Shu xayolning o‘zi bir necha soniya ichida talaba ongida katta orzu-maqсад, tasavvurlar uyg‘otadi. Va bu uning nigohida ham o‘z ifodasini topadi. Qutini ochgach, uning ichi bo‘sh ekanidan xayron bo‘ladi. So‘ng buning sababini izlashga urinadi. Rejissyor rejasini yuzaga

chiqarish, aktyor psixologiyasini va sahna amaliyotini bilish bilan bog‘liqdir. U aktyorlar bilan ishlashda ikki uslubdan foydalanadi: tushuntirib berish — podskaz; ko‘rsatib berish — pokaz.

Shuning uchun rejissyor ma‘lum darajada aktyor ham bo‘lishi talab qilinadi. Aktyorning xatolarini aniq va oshirmasdan ko‘rsatish, harakat kelib chiqishi sababini tushuntirish, ular mahoratini o‘stirib borish — bosh masalaga aylanadi. Rejissyor faqat tushuntirsa yoki faqat ko‘rsatib bersa bir yoqlamalik paydo bo‘ladi. Ko‘rsatib berishning ham yaxshi, ham yomon tomonlari bor. To‘g‘ri, ko‘rsatish — o‘z vaqtida bo‘lsa, ya‘ni aktyor shu ko‘rsatishdan keyin, tushunmay yoki qiynalib turgan yerdagi o‘z xatosini tezda tushunib olsa — yaxshi. Rejissyor ko‘rsatganini aktyor tushunmagan holda qabul qilib olib, ko‘rganlari kelgusidagi harakatlariga, ijodiga to‘siq bo‘lib qolsa — yomon. Ba‘zi bir aktyorlarga rejissyorning ko‘rsatganlari yoqib qolib, o‘z izlanishlarini to‘xtatib ko‘yadi. Shuniig uchun rejissyordan tushuntirish va ko‘rsatib berishni meyoridan oshirmay, aktyorning ijod qilishiga yo‘l ochib, imkon yaratishi, uni yunaltirishi, turtki berishi talab qilinadi.

Rejissyor: faqat pyesani to‘g‘ri tahlil qiladigan; aktyorlar oldiga aniq maqsad va vazifalar ko‘yadigan; sahnada maqsadga muvofiq harakatni barpo qiladigan; dekoratsiyani qulay joylashtiradigan — boshqaruvchi emas, balki barchasini sinchkovlik bilan kuzata borib, zarur ikir-chikirlarnn vaqtida tuzatadigan va o‘z professional bilimlarini namoyon qiladigan mutafakkir — ijodkordir. U o‘z tafakkuri va badiiy qobiliyati, ijodiy kuchi bilan dramaturg g‘oyasini, aktyorlar qalb haroratini, zamon talabini mujassamlashtirgan holda sahnada jonli jarayon anqib turgan teatr san‘ati asari — spektakl yaratuvchisidir. Bu murakkab jarayonda u bilimidan, hayot tajribasidan, xalq madaniy-badiiy boyligidan, boshqa san‘at asarlaridan maqsadga muvofiq foydalana oladigan va mustahkam o‘z estetik e‘tiqodiga ega bo‘lgan ijodkor shaxs.

Fan va texnika, adabiyot va san‘at rivojlangan hozirgi davrda rejissyor zimmasiga yanada murakkab badiiy vazifalar yuklanadi. Demak, undan davlat tizimi haqidagn fikrlarni, siyosiy va ijtimoiy masalalarni, umum taraqqiy

muammolari bilan bog‘liq talablarni badiiy ifodalash talab qilinadi. Shuning uchun ham rejissyor muallif bilan tomoshabin o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita bo‘libgina qolmay, u yaratgan spektakllar muallif g‘oyasi orqali muxlislarini hayratga soluvchi, to‘lqinlantiruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi, oliy maqsadli ijodkordir.

#### **4.2. Teatrlar repertuarining ijodiy jamoa badiiy saviyasini va mahoratini yuksaltirishdagi roli.**

Jamoaga ishonch va qattiq talabchanlik, rejissyor hamda aktyorlar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatlarning asosi bo‘lishi lozim. Aktyorga to‘g‘ri maslahat berish uchun rejissyor — aktyorlik mahoratining asosiy qonuniyatlarini bilishi va aktyor tabiatini yaxshi tushunishi hamda ularga har jihatdan ibrat bo‘lishi kerak.

Rejissyor jamoadagi har qanday tartibsizlikka, loqaydlikka murosasiz bo‘lmog‘i lozim. Bularning hammasi rejissyor etikasi asosini tashkil etadi. Teatr jamoasi va rejissyor orasidagi munosabatlar oson kechmaydi. Har qanday shaxsga jamoaning ta’sir kuchi juda katta bo‘ladi. Ahil jamoa hayotda qoqilgan insonni suyab, oyoqqa turg‘azib, o‘z o‘rnini topishida yordam berishi mumkin. Yoki aksincha, jamoaning kuchi yaxshilikdan — yomonlikka, ijodiy talabchanlikdan — qasos olish kuchiga aylanishi ham mumkin. Chunki jamoa har xil xarakterli kishilardan tashkil topadi. Shuning uchun “sog‘lom jamoa”, “kuchli jamoa”, “qobiliyatli jamoa” degan tushunchalar bor. Jamoadagi har bir shaxsni qobiliyatli, kuchli va ruhiy sog‘lom deb bo‘lmaydi. Teatr jamoasi degan tushuncha murakkab va ko‘p qirralidir. Buning sababini qobiliyatlilarning va loqaydlarning sahna san’atiga bo‘lgan muhabbati bir xilda emasligidan qidirish lozim.

Chinakam ijodiy barqaror teatr jamoasi buyruq orqali yuzaga kelmaydi, balki asta-sekin, ko‘p yillar mobaynidagi hamfikrlilarning izlanishlari orqali tashkil topadi. Aksincha, jamoa tarkibi beto‘xtov o‘zgarib tursa, teatr o‘tkinchilar yo‘lagiga o‘xshab kolgan bo‘lsa, u yerda hech kachon yaxlit ijodiy jamoa vujudga kelmaydi. Haqiqiy ijodiy jamoaning vujudga kelishida birinchi navbatda rejissyorning iste’dodi va insoniy fazilatlarini asos bo‘ladi. Bunga: Stanislavskiy va

Nemirovich-Danchenkolarning MXAT jamoasi; M.Uygur va YE.Bobojonovlarning “Hamza” teatr jamoasi; Lsningraddagi G. Tovstonogov rahbarligidagi BDT jamoasi; “Sovremennik” teatrining ahil jamoasi yorqin misol bo‘ladi. Rejissyor Ergash Masafoyevning biografiyasi ham ayni shu ma’noda ibratlidir. U tashkil etgan mutlaqo yangi tipdagi “Yosh gvardiya” nomli o‘spirin yoshlar teatrining vujudga kelishi, yillar davomida ijodiy yutuqlarga erishganligining asosi jamoani shakllantira olganligidadir. Rejissyor va jamoa o‘rtasidagi munosabatlarning keskin buzilganligi tufayli, bu teatr o‘z ijodiy uslubini yo‘qotdi. Ergash Masafoyev o‘z ideallariga sodiq qolib, mutlaqo yangi –“Diydor” nomli o‘spirin yoshlar ijodiy teatr studiyasini tashkil etdi.

Rejissyor jamoa a‘zolari orasida ijodiy atmosfera yo‘kligidan shikoyat qilishi mumkin. Bunday sharoitda rejissyor ijodiy muhit yaratishga intilishi ham farz, ham qarz. Yana bir muhim masala, rejissyor bilan aktyor o‘rtasida ozgina bo‘lsa ham hurmat “parda”si bo‘lishi lozim. Bu chegaraning mazmuni shundaki, rejissyor aktyorga qaraganda ko‘proq bilishi va uzoqroqni ko‘rishi, ular istiqbolini ko‘zda tutishi, ijodiy ishlar javobgarligini o‘z-zimmasiga olishi zarur.

Rejissyorni aktyorga, aktyorni rejissyorga qarshi gij-gijlaydigan ba’zi-bir teatr fitnachilari teatr san’atining dushmanidir. Chunki aktyor spektaklning asosiy kuchi hisoblanadi. Faqat aktyor orqaligina spektakl g‘oyasi, rejissyor rejasi amalga oshiriladi.

Teatr bu bir butun — yakdil ijodiy hamkorlik asosida ishlaydigan badiiy jamoadir. Hap qanday yangi spektakl bu rejissyorning aktyor bilan tasodifiy uchrashuvi emas, balki taqdir taqozosi bilan ularning ijodiy hamkorlikda o‘shish bosqichidir.

Rejissyorning obro‘si faqatgina yaxshi sahnalashtirilgan spektakl orqali yaratilmaydi. Har bir spektaklda aktyorning yangi qirrasini ochish rejissyorning asosiy vazifasidir. Yaxshi spektakl sahnalashtirish va teatrda tarbiyaviy ishni olib borish uchun rejissyor aktyorlarning ijodiy imkoniyatlarini bilishi va ularni yangi marralar sari yetaklashi lozim. Buning uchun — rejissyor aktyorlarni ular ishtirokidagi spektakllarda o‘rganadi. Chunki aktyorlar har bir spektaklda har safar

yangicha o‘ynashi mumkin. Afsuski, ko‘pgina rejissyorlar premyeradan keyin aktyor bilan ishlashga nuqta qo‘yishlari mumkin. Bu o‘ta yomon odatdir. Stanislavskiy fikricha, rejissyorlarning eng muhim ijodiy ishi premyeradan keyin boshlanadi. Har kuni aktyor rolini, sahnadan chiqqanida — “issig‘ida” tahlil qilish va takomillashtirish ulug‘ rejissyorlarga xos odatdir.

Stanislavskiyning kashfiyot qilgan texnika va uslubini tezkor xayotimizda yo‘q qilib tashlashdan extit bo‘lish kerak. (ko‘pincha kontekstlar olib tashlanadi). Birinchi qadamdan o‘q so‘ramasa bo‘lmaydi : “Men qanday qilsam yaxshi aktyor bo‘la olaman? Xar doim birinchi savol bo‘lish kerak: Aktyorlarning yaxshi ijrosi nima degani? Javob esa oldingiday bo‘ladi: “Qachonki u jonli bo‘lsa” . Ajablanarlisi biz doim o‘sha nuqtaga qaytishimiz kerak, aks holda biz izlagan narsa yo‘qoladi.

Bir necha kun oldin bir chet ellik odam ko‘chada yonimga kelib mendan ingliz tilida so‘radi: “Kechirasiz, iltimos. Belsayz parkiga qanday borishimni aytaolmaysizmi?” Men unga javob berdim. U menga qaradida va qattiq aksent bilan: “Men aniq o‘sha manzilni topganimni qanday anglab olaman?”. Bu juda o‘rinli savol edi. Anglashni o‘rganish- bu demak barcha sohada xayotiy muxim narsalarni bilib olishdir.

Borliqni anglash Stanislavskiy uchun katta axamiyat kasb etardi. Misol uchun, aktyor personajiga yuklatilgan meyorini ko‘rishni o‘rganish kerak. Stanislavskiy “Berilgan shart-sharoit” ga katta axamiyat qaratgan. G‘oya aniqqa o‘xshaydi, ammo o‘ta nozik. Xayotda barcha narsa tugallangan bo‘lishini u juda yaxshi bilardi. Biz yashayotgan katta bir dunyoda kichkinagina xayotiy xaqiqatni ko‘rish uchun personaj va xatti-xarakat doim “Berilgan shart-sharoit”ga bog‘liq bo‘ladi. Insoniyat taqdiri sayoramiz sog‘ligiga bog‘liq. Biz vakuumda yashayolmaymiz.

Afsuski Stanislavskiy afsonaga aylangan va bu narsa unga yomon tomondan xizmat qildi. Ko‘plab buyuk mutafakkirlarga o‘xshab. Stanislavskiy ayrim doimiy to‘qnashuvlar bilan kamtarinlik va soddalik orqali kurashib keldi. Ko‘pincha

natijasi aksincha bo‘lgan. Balki shuning uchun barcha narsalarni yengillik bilan tan oldi.

Masalan, u bilgan teatr ikkita qit‘aga bo‘linishini, shakl va mazmunga. Endilikda Stanislavskiy aktyorning kechinma san’atiga maftun bo‘lgan. “Uch opa-singillar” spektakli uchun kichkinagina bir tovushli effektdan iborat bo‘lak o‘ylab qo‘yilgan edi. Chexov navbatdagi ijroda - “Ajablanarli emasmi shunday yozning issiq bir kunida mana shunday joylarda sizlar chigirtka tovushini eshitmasangiz”- deb po‘pisa qilgandi. Xech qanday bo‘m-bo‘sh, soxta teatr jestlari bo‘lmadi, buning uchun Stanislavskiydan xafa bo‘lishgandi.

Asosiy birinchi ishlaridan “yuzakilikdan” qochish, teatr “xaqiqat”dan ustun bo‘lishi edi. Agar teatr yashash xuquqiga ega bo‘lmoqchi bo‘lsa, teatr bu ikkita yechimga muxtoj,-degan anglashilmovchilikka bu fikr tenglashtiriladi. Biz yashashimiz uchun saxnada o‘ynashimiz kerak, ammo o‘ta o‘yinqaroqlik jazavaga olib keladi. Muqaddaslikni, mo‘tabarlikni, yer va moviy osmonni, poklanishni qo‘pol xo‘rlagan, shou-biznesga aylantirgan holatlardan bu ikki xil qit‘a orasidan Stanislavskiy xam boshqa buyuk insonlarga o‘xshab aylanib o‘tadi. Bir qit‘aga e’tibor bermaslik qisqa kelajakda o‘zlikni xis qilish uchun qulaydir, ammo bu narsa baddiylikda o‘z joniga qasd qilishga olib keladi. Yaxshi xayot kechirish uchun biz kaos va tartiblilik o‘rtasida nozik murosima o‘rnatishimiz kerak.

Stanislavskiy boshqa buyuk mutaffakirlar kabi ziddiyatlarga ko‘p uchragan. Masalan u “Proffesional”likni orzu qilar edi. Zamondoshlari u talantli aktyor ekanligini tan olganlar, ammo uning o‘zi hali bu narsaga tayyor emasligini qalbining bir chetida sezib turar edi. Uning uslubi talabalarni aktyor bo‘lishga o‘qitishgina emas, talabaning o‘z ichida “professionallik”ni tarbiyalashdan iborat. Xaqiqatdan mana narsa Stanislavskiyni ulug‘ligini isbotlaydi.Uning donoligi -u bilimsizlikni bilgan.

Stanislavskiy bir gurux xatti-xarakat qilayotgan aktyorlarni ko‘rganda, rejissyor sifatida u eng sust aktyorlarni birgalikda eng kuchli aktyor qilib yetishtirishga yordam berish kerak ekanligini angladi. O‘zining xayotiy faoliyati davomida aktyorlarga yordam berish va ularni yaxshiroq xatti-xarakat qilishi

maqsadida bir qancha mashqlarni kashfiyot qildi. Unda xech qanday buyuk rejalar yo‘q edi. U xar doim shart-sharoitga diqqatini qaratardi Uni o‘zining berilgan shart-sharoitlari doim qurshab turardi. Xar doim xamma narsa o‘zgarib turganday shart-sharoit xam o‘zgaradi. Xar bir tizim revolyusion xarakterga ega bo‘ladi va albatta u muvaffaqiyatsizlikka uchrab turadi.

U o‘z fikridan tez-tez aynib, o‘zgarib turar edi. Uning xar bir talabasi kuzatuvlari yoddan ko‘tarilmasligi uchun ularni yozib olish maqsadida kundalik daftar tutishga majbur qilgan.

Ko‘p yillar davomida ayniqsa ayniqsa, revolyusiyadan keyin ustozini fikrlarini xotirasiga muxrlagan shogirdlari xar tomonga tarqab ketdilar, Konstantina Sergeyeovichning ziddiyatga boy fikrlari davr o‘tishi bilan, vaqtinchalik bir tizimga tushishi mumkin. Shuning uchun uning shogirdlari xam jiddiy norozilik fikrlarni juda ko‘p bildiradilar. Bularning ko‘piga Konstantin Sergeyeovich o‘z roziligini bildirgan bo‘lardi. Ammo u, shu faqat bitta xaqiqat yo‘li,- degan shogirlar fikriga qo‘shilmas edi.

Stanislavskiy qalbida buyuk g‘oyalar shakllanayotganini ko‘rgan o‘sha davrning davlat raxbarlari cho‘chib turar edi. Albatta avval ular noo‘rin insoniy o‘lchovlar birligini yo‘qotishi kerak edi. Sovetlar Soyuzi turli xil tag ma’noga ega metaforalardan qo‘rqqani uchun, ayrim davlat xizmatchilari uning nazariyasini stalinchilik naturalizmi uchun buzib o‘zgarttirgan. Ammo sayoraning kesishmasiga ko‘ra, boshqa taqdir unga duch keldi. Stanichslavskiyning yana bir prinsiplaridan biri -aktyorlar kutilmaganda ta’sirlanib partnyori bilan shu vaqtda adaptatsiya qilishga sharoit yaratadi. Lekin qo‘shma Shtatlarda uni ayrim vaqtlarda ansambldan yiroq holda o‘zini katta ijro qilgan roli bilan yakka yulduz bo‘lib jamoadan ajralib turadi. Shu yo‘sinda o‘tgan davrning asosiy qismida Stanislavskiy kommunistik fikrlarni ya’ni har bir inson o‘z didiga ega deb singdirib ketgan. Xozirgi davrdagi totalitar tuzumni o‘sib borishi totalitar tuzumni yemirilishiga raxna solyapti. Stanislavskiy xam fundamentalizmning raxnasi ostida turibdi. Buyuk ruxiy yo‘lboshlovchilar shuni ta’kidlaydiki, qonun bilan ruxiy qonun



o'rtasida qarama qarshilik bo'ladi, lekin inson ruhiy holatni o'zida xis qilish kerak.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sahnada aktyor tarbiyasida mezansahnaning roli va ta'sirini etyudlarda sinash
2. Aktyorlik maxoratini rivojlantirishda xorijiy tajriba, K.S.Stanislavskiy maktabi
3. Mezansahna deganda nimani tushinasiz?
4. Mezansahnaning rolga ta'siri qay darajada muxum?
5. Etyud tayyorlash?
6. K.S.Stanislavskiy kim?
7. Xorij teatrlari to'g'risida nimalarni bilasiz ?
8. Xorij aktyorlaridan kimlarni ijodiga qiziqasiz?
9. Topshiriqlardan kelib chiqib sahna ko'rinishi tayyorlash

### **Adabiyotlar ruyxati**

1. Arastu. Poetika. Yangi asr avlodi, 2016
2. Usmonov R. Rejissura. T.:Fan, 1997.
3. Salimov O. Kasbim rejissyor. – T: Fan, 1997
4. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. – T.: Konsalt, 2008.
5. Isroilov T. Rejissura. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Aleksandr Mitta. Kinoda rejissura va dramaturgiya.-T.. 2014.
7. Andrey Angelov. Prakticheskaya rejissura kino. –M.; Lennex Corp, 2018. -200 s.
8. Djumanov I. Badiiy so'z mahorati.-T., 2015.-157 b.
9. Zufarov U. Sahna talqini va tahlil.-T.:Musiqqa, 2007.
10. Ismoilov A, Usmonov SH, Ismoilov D, "Sahna harakati va jangi". T.: Navro'z, 2015.-265 b.
11. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. O'zDSMI, 2005.
12. Qodirov M. O'zbek teatri tarixi. T.: Ijod dunyosi, 2003.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1- Amaliy mashg‘ulot.

**Braxt teatri talqinini aqliy idrok etish masalasi. Kechinma san‘ati maktabi talablari. Stanislavskiy sistemasi – aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi. (4 soat).**

*Ishdan maqsad:* Sahnalashtirish uchun maxsus yozilgan asarda asosan nutqlari orqali muloqotga kirishadiaktyor o‘ziga berilgan personajning dunyoqarashini ziyolilik, soddalik, samimiylik, to‘porilik yoki kasbiy ko‘nikmalari orqali shakllangan so‘zlar ohangi va temporitmi orqali ifodalash

*Masalaning qo‘yilishi:* Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

#### Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi talabalarni 4-guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi. (darslik, ma‘ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e‘lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e‘tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Stanislavskiy sistemasi – aktyorlik mahorati fanining nazariy hamda amaliy asosi. (4 soat).**

Teatr san‘ati maktabini o‘rganuvchi talabalar eng avvalo sahnada ijro etishni o‘rgatib bo‘lmasligi, o‘rganish esa mumkinligini, teatr san‘ati dargoxi aniq qoliplarga ega bo‘lgan g‘isht tayyorlovchi zavod emas ekanligini aniq bilishi kerak. Rollarni ijro etish uchun tavsiyalar yo‘q. Talabalar yaxshi aktyor bo‘lib yetishadimi, yo‘qmi biz buni bilmaymiz. Agar yurakdan o‘rganish uchun xoxishi zo‘r bo‘lsa, maqsadga erishadi albatta. San‘atda barcha sharoitga xos yurish–turish qoidalari yo‘q, va shaxzoda Gamlet rolini qanday ijro etishning majburiy

ko'nikmalari bo'lishi ham mumkin emas. Albatta bugun, bundan 50 yil avvalgidek emas, yana 50 yildan so'ng xam hamma narsa o'zgaradi, bugungiday bo'lmaydi. Chunki, bundan yarim asr ilgari, hamda bugun va yana yarim asrdan keyin, aktyor asosiy savolni, ya'ni – NIMA UCHUN MEN BUGUN GAMLETni O'YNAYAPMAN?, degan savolni hal etadi. Nima uchunligini hal qilgach, kimni va nimani o'ynaydi, qandayligini izlaydi, o'ylaydi va topadi.

Aktyor etikasi nafaqat kasb sirlarini egallashda, balki, butun san'at tarixining g'oyaviy tarkibiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham teatr san'atida aktyor etikasi ma'lum chegara va qoidalardan tashkil topgan. Har bir aktyor teatrda faoliyat yuritir ekan teatr jamoasi, tomoshabin, pyesa muallifi, partnyori va nihoyat o'zi oldidagi ma'suliyatni unutmasligi, xis etishi lozim. Teatr san'atining o'ziga xos tabiati, jamoa san'at ekanligi aktyor oldiga nafaqat o'zi va jamoasi, balki umumbashariyat bilan bog'liq yuksak burchni yuklaydi. Bunda aktyor jamoa, jamoa esa aktyor uchun javobgar xisoblanadi. Shu jihatdan ham teatr san'ati tarixida uning buyuk darg'alari yosh aktyorni tarbiyalashda etik, estetik madaniyat tarbiyasini muhim deya xisoblaganlar. Zero, bir teatr asari – spektakl yaralishida ko'plab insonlar ishtirok etadi. Ular orasida ijodiy badiy birdamlik paydo bo'lgandagina spektakl yaralishidek murakkab jarayon samarali yakun topadi. Aksincha, jamoa ichida faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan shaxslar ham uchrab turadi. Bunday insonlar Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda san'atni emas san'atda o'zini sevgan "ijodkor"lardir. Ular nafaqat spektakl, balki, san'at rivoji, sifatiga salbiy ta'sir etadilar. Xudbinlik, xasad, ko'rolmaslik, mayda-chuyda gap-so'zlar va sahna orti g'iybatlariga yukak g'oya, buyuk maqsadga intilish orqaligina chek qo'yish mumkin. Aktyorlik va san'at etikasining eng muhim birlamchi talabi shudir. Har qanday eng iste'dodli, mahoratli aktyor ham o'zi xis etmagan, o'zida mavjud bo'lmagan guman xislat-fazilatlarini, qalb beg'uborligi, yurak pokligini sahnada ishonarli tasvir etolmaydi. Uning xatti-xarakterlariga tomoshabin ishonmaydi. Aktyor sahnada "xissiyot xotirasisiz" ijod qila olmasligi ko'pchilik san'at ahllariga albatta kundek ravshan. Qahramonning ichki dunyosini yaratish uchun aktyorga o'z intellektual va emotsional xotirasigina ko'mak berishi mumkin. Shuning uchun ham o'z hayotiy tajribasi davomida turli xissiyotlarni boshdan kechirmagan aktyor sahnada aynan shu xissiyotlarni tasvirlay olmaydi. Bunga erishgan taqdirda ham haqiqiy san'at xisoblanmaydi. Turli ichki xissiyot, xislat-fazilatlarini quruq tashqi tasvir texnikasi orqali ifodalab bo'lmaydi. Buning aksi, ya'ni salbiy obraz yaratishda ham ayni yuqoridagi fikrimiz o'z isbotini topadi. Yuksak fazilatli ideal, barkamol inson bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan aktyor sahnada uning aksi – antitezasini san'at asari darajasida tasvir eta olmaydi. (Bundan kelib chiqadiki, aktyor eng avvalo o'zida guman fazilatlarini shakllantira olishi darkor). Qalbiga yuksak g'oyalarni eka olgan, yuksak madaniyatga ega

bo'lgan aktyor biror bir salbiy obrazni tushunib tasvirlar ekan zaldagi tomoshabinlar tasavvurida bu obrazga nisbatan ishonch va istexzo, nafrat uyg'onadi. Boisi, aktyor sahnada salbiy obraz qiyofasidagi xatti-harakatlari zaminida o'z obraziga nisbatan nafrat yotadi. Bu nafrat bevosita tomoshabin qalbiga ham o'tadi. Teatr san'ati tarixida yuksak satirik obrazlarning faqat yuqori madaniyat, bilm va keng dunyoqarashga ega bo'lgan san'atkorlarga mahorat bilan ijro eta olganligi bejiz emas. Albatta, mazkur fikrlardan ulug' aktyorlarning barchasi salbiy xislatlardan xoli degan xulosa yasamoqchi emasmiz. Biz yashab turgan hayotimizda ideal, barkamol insonning yo'qligi aniq fakt. Faqat barkamollikka intiluvchi insonlarga mavjud. Salbiy obraz qiyofasini ifoda etarkan aktyorning o'z emotsional xotirasiga murojaat etib salbiy xislatlar xissiyotidan foydalanishi sir emas. Ammo, aktyor ayni damda o'z salbiy xislatining aynan salbiy ekanligini tushunib yetgan bo'lishi kerak. Ko'plab ulug' san'atkorlar tajribalaridan ma'lumki, salbiy, shuningdek ijobiy obraz ijrochisi ham o'z qahramonini yaratar ekan qalbidagi yashirin xotiralar, o'z boshidan kechgan voqelar haqidagi xissiyotlardan ish quroli sifatida foydalanadi. Biz eng yaxshi deya xisoblaydigan, tasvir etadigan insonda ham oz bo'lsada xasad, xudbinlik, beshavqatlik, qo'rqqoqlik, yovuzlik kabi xislatlarni nima va qanday? ekanligini oz bo'lsada biladi, xis qiladi.

Insonning emotsional xotirasida salbiy xislatlar ko'plab topiladi. Ularning salbiy ekanligini ta'kidlovchi vosita esa ong xisoblanadi. O'z emotsional xotirasidan to'g'ri foydalana olgan aktyorgina sahnada yuksak obrazlar, san'at asarlari yarata oladi. Bu muvaffaqiyat asosida esa yuksak ezgu maqsad yotadi. Teatr ijodkorlari orasida shunday aqida mavjud: Aktyor teatr binosiga qadam qo'yar ekan, o'zi bilan faqat yuragidagi yaxshi xislat-xayollarni olib kirishi, aksincha, haqiqiy ijod jarayoni, ilhomiga halaqit beruvchi, putur yetkazuvchi, kishining yuksak, toza tabiatiga qarshi yomonliklar, mayda gap-so'z, g'iybat, arzimas orzu-tashvishlarni esa teatr tashqarisida qoldirishi lozim. Tinimsiz qaytariluvchi mashqlar natijasida aktyor qalbidagi barcha ijobiy fazilatlarining mustahkamlanishi, salbiy xayollarning esa sekin-astalik bilan yo'qolib borishiga erishishi mumkin.

Etik madaniyat talablari har bir davr, zamon, muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Ammo, uning zaminida yotgan asosiy g'oya, oliy, ezgu maqsad – guman xislat, badiiy did, etik madaniyat o'zgarmaydi. Balki, yanada sayqallanib, rivojlanib boraveradi.

Teatr shunday murakkab zaminki, unda bir vaqtning o'zida ham chiroyli, nafis gul, ham tikanak o'sishi, ozuqa olishi mumkin. Bu zamin har ikkisini - yuksak ezgu niyatli, teatrga sodiq, uning uchun har qanday qurbonlikka tayyor ijodkorni ham, o'ziga xaddan tashqari bino qo'ygan, xudbin, san'atdan faqat

shuxratparastlik, o'z manfaati yo'lida foydalanuvchilarni ham o'z o'g'itlari, boy ma'danlari bilan birdek ta'minlaydi. Shunga qaramay, xaqiqiy aktyorlargina yillar silsilasida, tarix zarvaraqlarida abadiy yashashi mumkin.

Bugungi kun zamonaviy aktyori tezkor shiddat-shaxtga ega, yangilikka intiluvchi bo'lishi bilan birga, sokin, beg'ubor ijod ilhomiga ham ega bo'lishi kerak. Zero, tobora rivojlanib borayotgan asrimiz ijodkor, aktyordan, balki, ishchanlik, tezkorlikni talab etadi. Aktyor esa xalq ko'zgusi. Oddiy insonlardan bir pog'ona yuqoriroqda, oldinroqda, xalqqa o'rnak. Teatr sahnasining tomosha zalidan bir-ikki pog'ona yuqorida ekanligining ma'no-mohiyati ham shundadir balki. Bu falsafa aktyorning zimmasiga san'at va o'zi oldida juda katta ma'suliyat yuklaydi. U teatr san'atining asosiy quroli sifatida o'zini ham jismoniy, ham ruxiy tomonlarni turli zararli ta'sirlardan ximoya qilishi, noziklik bilan tarbiyalashi lozim.

Aktyor ijodi jarayonining dastlabki bosqichida osonlik bilan topilgan shuhrat aktyor shaxsiyati va etik madaniyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'z-o'zini sevish va xudbinlik aktyorlik kasbida eng birinchi dushman sanaladi. Ijodiy o'z-o'zidan qoniqish aktyor mahoratini o'tmaslashtiradi. Aktyor doim o'z kamchiliklarini bilishi, nazaorat qilishi, ularni bartaraf etishga intilishi lozim. Ba'zi xollarda aktyorni maqtash, qo'llab –quvvatlash albatta extiyojga, zaruriyatga aylanishi mumkin. Biroq, bu borada talaba kelajak faoliyatida shuni inobatga olishi, o'ta e'tiyotkorlik va ziyraklik bilan ish ko'rish talab etiladi.

## **2. Badiiy asarga tiliga talabada hurmat xissini tarbiyalash.**

Yosh aktyorda dramaturg, pyesa tiliga ham alohida hurmat xissini tarbiyalash avvalo aktyorning etik madaniyati talablaridan biri xisoblanadi. Aktyor biror-bir asar qahramonini ijro etar ekan pyesada keltirilgan so'zdan ortiqcha so'zni qo'llamasligi, o'zidan so'z qo'shmasligi kerak. Vaholanki, bugungi kunda teatrlarimizda bu masalaga mutlaqo e'tibor berilmaydi. Aktyor har bir so'z qadrini bilishi, xis etishi, muallif maqsadi, uslubiyatiga chuqur hurmat bilan qarashi lozim.

Aktyor sahnada partnyori oldida ham ma'suliyatlidir. Zero, sahnada badiiy hayot aktyorlarning o'zaro hamkorlikdagi hatti-xarakatlari orqali yuzaga keladi. Aktyorning partnyori oldidagi ma'suliyati unga nisbatan e'tiborli bo'lishga, o'ziga nisbatan bildirilayotgan munosabatni ilib olib unga qarshi munosabat bildirishga zamin yaratadi.

Aktyorning zimmasidagi ma'suliyatlar qatorida uning o'zi oldidagi ma'suliyat ham mavjudki, aktyor buni qalban xis etishi, o'zida ma'naviy, ruxiy, ijodiy kayfiyatni tarbiyalashi, rivojlantirishi, asarb-avaylashi kerak bo'ladi.

Teatr maktabi o'quvchilari bilan badiiy havaskorlik ishtirokchilariga aktyorlik mahoratini egallayotgan paytida aniq tavsiya berib bo'lmaydi. Aktyorlik kasbini o'rgatib bo'lmaydi. Ammo aktyorlik maxoratini o'rganish mumkin.

Darhaqiqat, sahnada rol ijro etishning bir qolipga tushirilgan qonun-qoidasi yo‘q. Xususan, Gamlet obrazini qanday yaratish mumkinligiga aniq ko‘rsatma berib bo‘lmaydi. Teatr san‘ati paydo bo‘lganidan boshlab aktyorning o‘zi nima uchun aynan shu rolni o‘ynayotganligi bilan bog‘liq eng muhim masalani o‘zi hal qilgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

**2-amaliy mashg‘ulot. Aktyorlik mahoratining asosiy unsurlari. Aktyor ijrosida – nutq, vokal, plastika va xarakter yaratish talablarining uyg‘unlashuvi. (4 soat).**

**Ishdan maqsad:** na‘muna darajasidagi spektakllarni tanlab olish va ularning kompozitsion qurilishini aniqlash

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘linib, har bir guruh “Rejissyor” so‘zi misolida sinkveyn yechadilar. Guruhlar o‘z mulohazalarini o‘qib eshittirib, og‘zaki tahlil orqali o‘zaro fikr-mulohaza almashadi.

**Ishni bajarish uchun namuna**

Sinkveyn

- ▶ \_\_\_\_\_ Ot (sushestvitelnoye ili mestoimeniye)
- ▶ \_\_\_\_\_ Sifat (prilagatelniye)
- ▶ \_\_\_\_\_ Fe‘l (glagol)
- ▶ \_\_\_\_\_ Ibora-gap (fraza)
- \_\_\_\_\_ Sinonim yoki rezyume

Mazkur metod nazariy asosni mustahkamlash, yangi ma‘lumotlarni puxta o‘zlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu metod yordamida talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash, mavzu doirasida ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash imkoniyati kengayadi.

**Aktyorda hissiyot va xotirani rivojlantirish**

Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatining kuchi bizning ishimizda katta ahamiyatga egadir. U qanchalik qulay, o‘tkir va aniq, bo‘lsa, ijodiy kechinma shunchalik ravshanroq va to‘laroq bo‘ladi. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati bo‘sh bo‘lsa, u sezilar-sezilmas, noaniq tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Ular sahnaga yaramaydi, chunki ta’sirchan bo‘lmaydi, ko‘rinmaydi, tomosha zaliga kam yetib boradi. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati hakidagi keyingi suhbatlardan ma‘lum

bo‘ldiki, uning kuchi, davomati va ta’siri turlicha bo‘lar ekan. Bu hakda Arkadiy Nikolayevich shunday dedi:

Ko‘z oldingizga keltiring, siz ko‘pchilik oldida haqoratlandingiz yoki tarsaki yedingiz, demak, butun umrga uyatga qoldingiz. Bunday voqeadan shunday kattiq larzaga kelgansizki, bu larza xatto uning butun boshqa tafsilotlari va tashqi jihatlarini bosib ketgan. Arzimas sabab yoki xech qanday sababsiz chekilgan bu alam- hissiyotlarni eslab qolish qobiliyatlarimizda birdaniga lovillab ketadi va ikki barobar kuch bilan jonlanadi. Shunda yuz qizaradi yoki oqarib ketadi, yurak esa siqilib qattiq-qattiq ura boshlaydi. Bunday utkir, osonlik bilan hayajonlanuvchi tuyg‘u materialiga ega bo‘lgan aktyorga sahnada, hayotda larzaga solib chuqur iz qoldirgan hodisaning tuyg‘usiga o‘xshash tuyg‘uni kechinish hech gap emas. Bunda texnikaning yordami kerak bo‘lmaydi. Hammasi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi. Artisgga tabiatning o‘zi yordamlashadi. Bu tuyg‘uni xotirlash va takroriy sezgining, xususan, kuchli, o‘tkir, aniq va yashovchan turlaridan biridir.

Boshqa bir hodisani olaylik. Mening bir do‘stim g‘oyatda parishonxotir odam edi. U bir tanishinikiga bir yildan keyin ziyofatga boribdi va shunda uy soxibining sevimli, jajji o‘g‘lining salomatligi uchun qadah ko‘taribdi.

### **3-amaliy mashg‘ulot: Aktyorning rol ustida ishlash jarayonida – aktyorning o‘z ustida ishlashi. Oliy maqsad hamda yetakchi hatti-harakatini to‘g‘ri aniqlash orqali rolning badiiy yaxlitligiga erishish. (2 soat).**

*Ishdan maqsad:* Teatrga kelgan tomoshabin spektakldan qanday ta’surot bilan chiqishi – teatr jamoasining badiiy qudratini, mantiqiy talqin esa rejissyor va aktyorlar mahoartini o‘rganish va baholashdan iborat.

**Masalaning qo‘yilishi:** tinglovchilar aktyorlik ta’lim tizimidagi o‘rnini bevosita malakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog‘liq holda belgilanishi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

Sohaning SWOT tahlili. Globallashuv jarayonida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar tendensiyasi va istiqbolli rejasini tadbiq etish. Tinglovchilar guruhlariga bo‘linib, “Mantiqiy talqinda teatr jamoasining ijodkorlik qudrati namoyon bo‘lishi” mavzusida SWOT tahlilni amalga oshiradilar. Guruhlar o‘z chiqishlarida har bir punkt bo‘yicha bildirilgan fikrlarni tahliliy asoslab, ilmiy basharatlarini ifoda etadilar. Guruhlarning muammoni aniq ko‘rsatishi va kelajakni bashorat qilishdagi tahliliy yondoshuvlari boshqa guruhlar tomonidan baholanadi.





Ushbu metodning ta'lim jarayonida qo'llanishi muammoni turli rakurslarda ko'rish, uning yechimiga doir atroflicha izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada talabada mustaqil fikrini bildirish, o'z qarashlarini himoya qilish va eng muhimi tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari mazkur metod talabani jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirib, guruhda liderlarning kashf qilish, passivlikdan aktivlikka olib chiqish maqsadlarini rag'batlantiradi.

### **Sahnada aktyorning jismoniy madaniyatini rivojlantirish, tuyg'u, mantiq va izchillikga erishish**

Talabalar bilan tanlab olingan asar ustida ishlar ekanmiz albatta mana shu so'z yuritmoqchi bulgan fikrlarga tuqnash kelamiz. Biz talabalardan rolning fojeali joylariga kuchanish va zo'rlanish bilan yondoshishi u yoqda tursin, hatto ko'pchilik aktyorlar qilgandek, birdaniga ham emas, balki asta-sekin, izchillik bilan, mantiqan birin-ketin kelayotgan jismoniy xatti-harakatlarning kichik va katta haqiqatini sezmoq hamda ularga samimiy ishonmoq kerakligini o'qtiramiz. Kupuncha biz sezilarli, ko'rinarli, tushunishimiz oson bo'lgan jismoniy hatti-harakatlarning mantiq va izchilligiga qarab ish tutamiz.

«Tuyg'uning mantiq va izchilligi» dek murakkab masalani qanday hal qilish mumkun.

Biz olimlar emas, aktyorlarmiz. Bizning sohamiz-faollik, xatti-harakat. Biz amaliyotdan, insonlar tajribasi, hayotiy xotiralar, mantiq va izchillikdan foydalanamiz, sahnada qilayotgan ishimizning haqiqatligiga va ishonchliligiga erishmog'imiz darkor.

Aktyor o'z-o'zimizga: «Agar men real hayotimda fojeaviy darajada

chorasizlik ahvoriga tushib qolsam nima qilardim?» degan savolni berishdan iborat. Faqatgina ana shu savolga insonlarcha javob bering, bo'ldi, boshqa hech narsaning keragi yo'q.

«Fojeaviy darajada chorasizlik» holatiga, ya'ni murakkab ruhiy holatga tushib qolsam, nima qilgan bo'lardim?-degan savolga siz qator g'oyatda mantiqli, izchil xatti-harakatlar bilan javob berasiz.

Tuyg'u mantiqi va izchilligi singari murakkab ruhiy masalani o'zimiz yecha olmaganimiz uchun, uni o'z holiga qo'yib turamiz va tekshirishni bo'lak, bizga tushunarli bo'lgan soha, xatti-harakatlar mantiqiga ko'chiramiz.

Jismoniy xatti-harakatlarning mantiqiy va izchil tashqi ko'rinishini yaratar ekanmiz, agar sinchiklab qarasaq, ichimizda bu yo'lga yondosh holda boshqa his-tuyg'ularimizning mantiqiy va izchil yo'li ham paydo bo'ladi. Bu tushunarli: axir, ichki his-tuyg'ularimiz biz uchun xatti-harakatlarni sezdirilmagan holda paydo qiladi, ular ham ana shu xatti-harakatlarning hayoti bilan chambarchas bog'langan.

Isbotlangan jismoniy va ruhiy xatti-harakatlarning mantiqi va izchilligi haqqoniylikka va his-tuyg'ularga ishonchni vujudga keltiradi.

Kundalik hayotimiz tajribalarini, his-tuyg'ularimizni qayta o'rganib chiqmog'imiz lozim.

His-hayajon sohasida biz yana o'sha har doim hoziru-nozir-mantiq va izchillikka ro'baro' kelamiz.

Mana endi ijodiy kechinma jarayonida mantiq va izchillikni his qilish haqida gapirsak.

Bu masalani qanday bo'lmasin hal qilish kerak. Rostdan ham, haqiqiy kechinmaga asoslangan bizning san'atimiz mantiq va izchillikni tuyg'usini chetlab o'tolmaydi-ku. Axir ularsiz haqiqat ham, qolaversa, ishonch ham, «men mavjudman» ham, bizning san'atimiz, ijodimiz, kechinmamizga asoslangan barcha a'zolarimizning beixtiyoriyligi ham yo'q-ku.

Bu masalaga ilm nuqtai nazaridan emas, o'zimizga juda yaxshi tanish bo'lgan, tajriba, amaliy bilim, his-hayajon, ko'nikma, odatlar va boshqa-boshqalarga boy haqiqiy o'z shaxsiy hayotimiz nuqtai nazaridan ko'rib chiqaylik.

-«Agarda men talqin qilayotgan rolimning berilgan shart-sharoitiga tushib qolsam, odamlarcha nima qilgan bo'lardim?», deb o'z-o'zingizdan so'rang.

Bu savolga shunchaki, rasman emas, balki ro'yi-rost va samimiy javob bering. Bu savolga na faqat aql, asosan tuyg'u bilan iroda qatnashsinlar va javob bersinlar.

Bu ham hali kam, men javobni so'zlar orqali emas, jismoniy xatti-harakatlar orqali olishni istardim.

Inson ruhiy hayotining ichki, ruhiy holatining mantiq va izchilligini anglamoq va aniqlamoq uchun, biz tanamizning muayyan, bizga tushunarli, aniq

jismoniy xatti-harakatlariga murojaat etamiz. Biz ularning mantiq va izchilligini ruhiy atamalar emas, balki jismoniy xatti-harakatlar orqali anglaymiz, aniqlaymiz va qayd qilamiz.

Agar ular chin, samarali va maqsadga muvofiq bo'lsa, qolaversa ichdan samimiy insoniy kechinmalar bilan tasdiqlangan bo'lsa, unda tashqi va ichki hayot orasida chambarchas bog'liqlik paydo bo'ladi. Ijodiy maqsadlarning amalga oshishida ana shundan foydalanish kerak.

Injiq, tutqich bermas tuyg'ulardan ko'ra, bizga yaqinroq jismoniy xatti-harakatlarga murojaat qilishimiz, ularni o'z ichki istaklarimizdan qidirishimiz, kerakli ma'lumotlarni inson sifatida o'zimga juda yaxshi tanish bo'lgan hayotiy tajribalarimizdan olamiz. Bunday paytlarda o'z xotirotlarimga va tabiatimga berilib ketaman.

Siz u yoki bu holatni, u yoki bu tuyg'uni talqin qilmoqchi bo'lar ekansiz, eng avvalo: «Ana shunga o'xshash sharoitga tushib qolsam men nima qilar edim?», deb so'rang. Yozib oling, xatti-harakatga aylantiring va ularni aynan xuddi shunday qilib rolingizga ko'chiring. Agar pyesa kuchli bo'lsa va unda haqiqiy hayot tasvirlangan bo'lsa, u holda xatti-harakatlarimizning hammasi bo'lmasa ham, qisman mos kelishi mumkin.

Yangi rolingizga taalluqli ana shunday savol va javoblarni yozib borishingizni juda ham maslahat qilaman. Bu shuning uchun ham foydaliki:

Yozma savol yoki javob vaqtida aniq nishonga uradigan so'zni qidirib topishingizga to'g'ri keladi. Buni esa savolga chuqur tushunib olmasdan qila olmaysan.

Aktyor uchun bunday yozuvlar bebaho ijodiy mahsul hisoblanadi.

Bir tasavvur qiling-a, bora-bora aktyorlik faoliyatingiz davrida siz to'qnash kelishingiz mumkin bo'lgan, pyesa va rollardagi barcha ichki holat va kayfiyatlarga mos keladigan ana shunday yozuvlar asta-sekin to'planib qoladi.

Bu yozuvlarda siz his-tuyg'ular xotirangizga ruhiy mahsulingizning kattagina qismini qo'shgan bo'lasiz. Bu juda katta gap: axir bu hissiyotning mantiqi masalasini o'rganishimizda juda qo'l kelishi mumkin.

Mana, masalan, sevgi... Bu insoniy ehtiros qanday paytlarda shakllanadi-yu va u qanday xatti-harakatlarga undaydi?

Siz ana shu xatti-harakatlarning har birini fikran to'g'ri, dalillar bilan, chuqur o'ylab, samimiy va to'la-to'kis bajarsangiz, avvaliga sevib qolgan kishining tashqi, keyinchalik esa uning ichki holatiga o'xshash xatti-harakatlarga yaqinlashasiz.

Har tomonlama to'la-to'kis pyesada ana shunday holatlarning hammasi yoki eng muhim tomonlari u yoki bu darajada namoyon bo'lib turadi. Aktyor ularni izlay boshlaydi va o'z rolidan topadi. Ana shunday talablar bilan biz sahnada bir qator vazifa va xatti-harakatlarni bajaramiz, natijada ularning majmuidan hosil bo'lgan

holatni sevgi deb ataymiz. U «umuman» emas, qismma-qism yaratiladi. Aktyor bunday hollarda oshirib o‘ynamaydi, balki xatti-harakat qiladi, aktyorlarcha qiliq qilmaydi, balki insonlarcha kechinadi, u tuyog‘uning mohiyatini bachkanalashtirmaydi, balki uni his qiladi. “Sahna hatti–harakati ma’noli, mantiqiy va ketma-ket bo‘lishi kerak”- degan edi K.S.Stanislavskiy. Shuning uchun ham pedagogning asosiy vazifasi bu-talabani to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirishdan iborat. [2.K.S.Stanislavskiy Tanlangan asarlar. 2-jild,M.,1954 y. 57-b.].

Ammo o‘zlari talqin qilayotgan tuyg‘uning asl mohiyatini chuqur o‘ylab va tushunib yetmagan ko‘pchilik aktyorlar sevgini «umuman» katta bir kechinma deb tasavvur qiladilar. Ular katta kechinmalar bir qancha alohida lavhalar va lahzalardan tashkil topishini unutib qo‘yadilar. Ularni yaxshi bilmoq, o‘rganish, o‘zlashtirmoq va har birini alohida bajarmoq lozim. Busiz aktyor bir qoliplik va hunarpazlikning qurboni bo‘lishga mahkum.

#### **4-Amaliy mashg‘ulot**

#### **Zamonaviy teatrlarning serqirra ijodkor aktyor tanlash tendensiyalari. (2 soat)**

***Ishdan maqsad:*** serqirra ijodkor aktyor tanlash vazifalari va amaliyotining xususiyatlarini tahlil etish. Rolning tahlil tushunchasi va funksiyasini o‘rganish.

***Masalaning qo‘yilishi:*** Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

O‘qituvchi talabalarni 4-guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

**V. KEYSLAR BANKI**

## V. KEYSLAR BANKI

### 1-KEYS.

*Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda —Ta'lim jarayoni tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.*

#### Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

#### Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

#### *Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:*

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

### ***Keysni yechish jarayoni:***

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

### **O‘qituvchining yechimi**

1. Mazmuniga ko‘ra barcha ta’riflar ham ta’lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo‘yicha o‘zining aniq terminologiyasiga ega bo‘lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta’riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

### **2-KEYS**

.Birinchi sinfda o‘qiyotgan Dilshod she’rni ifodali o‘qib bergani uchun —besh baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o‘zi yod olgan she’rni oyisiga ham o‘qib bermoqchi bo‘ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o‘g‘liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

**Savollar:**

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

**Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

**Keysni yechish jarayoni:**

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

**O'qituvchining yechimi**

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.



3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

### **3-KEYS.**

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

### **Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar**

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. Ko'zgazma metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

### **Keysni yechish jarayoni:**


1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.



## VI. GLOSSARIY

## VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Aktyorlikka oid mahorat fanlari</b>	tashkiliy va badiiy maqsadlarga erishish uchun talabalar va shu sohaning vakillariga beriladigan saboqlar sohaga mo‘ljallangan darslar OTM yoki tashkilotning qarori bilan belgilanadi.	an integrated management process which sees mutually satisfying exchange relationships with customers as the route to achieving organizational and artistic objectives
<b>Rejissyorlikning o‘ziga xos tendensiyalari</b>	Ma’lum bir kinofilm yoki spektaklni namoyishi yoki tayyorlanishiga qaratilgan senariy asosida yaratilayotgan badiiy asarni namoyish etishda zarur bo‘ladigan qonun-qoidalar.	an economical and cultural relationship system of fine and applied arts, where artwork’s supply and demand are formed, aesthetic price and material value are assessed
<b>Rejissyor</b>	Spektakl yoki kinofilm sahnalashtirishga ma’sul boshliq yoki rahbar.	a process of buying and selling goods or services by offering them up for bid, taking bids, and then selling the item to the highest bidder.
<b>Interpretatsiya</b>	Kinoasar va spektaklni olinish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil.	the variables, such as price, promotion, and service, managed by an organization to influence demand for a product or service
<b>Kinokampaniya</b>	Turli xildagi kinofilmlarni ishlab chiqaruvchi va ular ustidan bevosita nazorat qiluvchi davlatga qarashli yoki xususiy tashkilot.	it's not only organisation's successful operation in the past, but also a result of activity condition in the present and future
<b>Sahna dekoratsiyasi</b>	Kino yoki spektaklni namoyish qilishga kerak bo‘ladigan qurilmalar majmuasiga aytiladi.	feasible consumers, possible consumers
<b>Antrakt</b>	Aktyorlarga film yoki spektaklni namoyish oralig‘ida dam olish uchun beriladigan tanaffus.	the general impression that a person, organization, or product presents to the public
<b>Sahnalashtirish</b>	Asarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib unga munosib aktyorlarni tanlab namoyish qilishga tayyorlanish jarayoni.	the establishment of objectives and the formulation, evaluation and selection of policies, strategies, tactics and actions required to achieve them

<b>Afisha</b>	konofilm yoki spektaklni namoyishi namoyishi qachon bo'lishi to'g'risidagi tomoshabinlarga xabar yetkazishni odatiy usuliga aylangan qog'oz vositasi.	a strategy indicating the specific target markets and the types of competitive advantages that are to be developed and exploited
<b>Fon</b>	Kinofilmlar yoki spektakl tayyorlanish jarayonida sahna va inshootlarga beriladigan tasvir rangi u kino nufuzi va saviyasini ham belgilaydi.	a paid form of non-formal communication that is transmitted through mass media such as television, radio, newspapers, magazines, direct mail, public transport vehicles, outdoor displays and Internet
<b>imidj</b>	Sahnada rol ijro etayotgan aktyorning odatiy soch turmagi yoki kiyimlardan foydalanishi.	a person or company that buys and sells works of art
<b>Syujet</b>	Asarni keyingi sahna kurinishlari bilan bog'lashga xizmat qiluvchi badiiy sar unsurlaridan biri	the practice of creating, promoting, or maintaining goodwill and a favourable image among the public towards an institution, public body
<b>Rol</b>	Aktyorga bajarilishi kerak bo'lgan ijro vositasi u senariyda qanday bo'lsa shu tarzda amalga oshirilishi lozim.	the giving out of information about a product, person, or company for advertising or promotional purposes
<b>Prodyusser</b>	Film yoki spektaklni boshdan oxirigacha inventarlar va aktyorlarni moddiy qo'llab-quvatlovchi rahbar.	a strongly felt aim, ambition, or calling

## VII. ADABIYOTLAR RUYXATI

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 yanvarda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 8 maydagi Ommaviy ijroga mo‘ljallangan dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlar yaratganligi uchun mualliflik haqini to‘lash tartibi to‘g‘risida nizomi
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr

“Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 noyabr “Respublikada ayrim davlat teatrlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 sentabr “Tomosha» bolalar musiqiy teatr-studiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgust “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 695-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 iyun “Xalqaro sirk san’ati festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 535-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 iyun “O‘zbekiston Respublikasida kinoturizmni jadal rivojlantirish va mamlakat kino jozibadorligini keng targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 499-sonli Qarori

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 may “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi xalqaro festivallar direksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 444-sonli Qarori

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martdagi “Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 329-sonli Qarori

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 apreldagi “«Diydor» yoshlar eksperimental teatr-studiyasi» faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 266-sonli Qarori

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda “Filmning ommaviy namoyishini amalga oshirish uchun bir martalik ruxsatnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1012-sonli Qarori

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabr “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahrida yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 923-sonli Qarori



### III. Maxsus adabiyotlar

27. Mirzayev T., Xalq dostonlarining epik repertuari, T., 1979.
28. Razzoqov N., Mirzayev T va boshqalar., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi, T., 1980
29. Nashrga tayyorlovchi To‘ra Mirzayev va Zubayda Xusayenova. “Go‘ro‘g‘li” (o‘zbek xalq dostonlari)
30. 4.. Jo‘rayev M., Eshonqulov J.. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan texnologiyalar” -2017. 192 b.
31. 5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz sO‘z”, 2010.
32. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq oqzaki poetik ijodi. T., 2005.
33. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
34. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
35. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
36. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
37. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010. 368 b.
38. Turdimov SH. Etnos va epos. . –Toshkent: Ozbekiston, 2012. 112 b.
39. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. - 160
40. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. 120 b.
41. Mirzayev T. Dostonlar gultoji//Alpomish. Doston, Fozil shoir varianti. - T.: Sharq, 1998. -B. 7-12.
42. Mirzayev T. «Alpomish» dostoni uning versiya va variantlari // «Alpomish» - o‘zbek xalq qahramonlik eposi. -T.:Fan, 1999. -B. 3-21.
43. Turdimov SH. «Go‘ro‘g‘li» dostoni genezisi va tadrijiy bosqislari. – Toshkent: Fan, 2011. 220 b.

### IV. Internet saytlar

44. <http://edu.uz>
45. <http://lex.uz>
46. <http://bimm.uz>
47. <http://ziyonet.uz>
48. <http://www.dsmi.uz>.
49. <http://www.kino-teatr.ru>